

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

TARIX FAKULTETI

Tarix o'qitish meto'dikasi kafedrası

Xushnazarov Ahadjonning

«Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ilmiy rahbar: katta o'qituvchi T.Madaminov

Qo'qon-2019

MUNDARIJA

Kirish

I Bob. Jadidchilik oqimining vujudga kelishi Mahmudxo'ja Behbudiyning hayot yo'li.....6-21

1.1.Jadidchilikning mohiyati. Jadidchilik harakatining vujudga kelish tarixi.....6-14

1.2. Mahmudxo'ja Behbudiyning shaxsiy hayoti tarixidan.....14-21

II. Bob Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatchilik faoliyati.....22-53

2.1 Mahmudxo'ja Behbudiyning Jadidchilik rivojiga qo'shgan hissasi.....22-45

2.2 Mahmudxo'ja Behbudiyni tomonidan yaratilgan darsliklar va adibning siyosiy faoliyati.....46-53

Xulosa.....54-56

Foydalanilgan adabiyotlar.....57-58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tariximizni erkin, xolis va haqqoniy o'rganish uchun to'liq sharoit yaratildi va shu asosda o'zlikni anglash hamda milliy ma'naviyatimizni tiklashga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu boisdan tarix fani oldiga yangi talablar qo'yildi.

Jamiyatni qayta qurish jarayonida tarix fanining ahamiyati haqida O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov respublika tarixchi olimlari bilan bo'lgan uchrashuvda "Tarix xalq ma'naviyatining asosidir, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "... tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak"¹ deb ta'kidlagan edi

Mustaqillik sharoitida Vatanimiz tarixini mukammal o'rganish, sovet davrida tarixiy voqealar hamda tarixiy shaxslar to'g'risida mavjud bo'lgan noto'g'ri xulosalarni qayta ko'rib chiqish zaruriyati tug'ildi. XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan Mahmudxo'ja Behbudiy va jadidlarning hayot yo'li, ilmiy faoliyatini qayta o'rganish va konseptual asosda qayta baholash ham ilmiy, ham siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bitiruv malakaviy ishida bu davr tarixini yoritishga bo'lgan kichik mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tarixshunosligimizda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ayrim ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati haqida A.Alimova, B.Qozoqov, N.H Avazov, D.Asqarovaning bir qancha asarlari mavjud².

A.Alimova haqli ravishda Behbudiy hayoti va faoliyatiga to'xtalib, mamlakatimiz va xalqimiz ma'rifatchiligi, davlatimiz istiqboliga erishishdagi xizmatlariga alohida to'xtalib, uning xizmatlariga yuksak baho beradi.

N.H.Avazov bo'lsa Behnudiyning ma'rifatchilik yo'lidagi faoliyatiga alohida urg'u berib uning xizmatlarini jadidlar orasida eng oldingi o'ringa qo'yadi.

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T: Sharq. 1998. B. 8, 28.

² Alimova.A. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya. T.: ФАН.

B.Qozoqov bo'lsa, umumiy jadidlar harakatiga oid asarlar yo'zgan bo'lib, u asarlarda Mahmudxo'ja Behbudiyning Xalq va Istiqlol harakatlarida o'rnini katta ekanligini, D.Qosimova bo'lsa, Behbudiy hayotining so'nggi davrlariga to'xtalib, uning hayotiga zomin bo'lgan va afsus bilan bu hayotdan juda erta atiga 45 yoshida- ijodining eng gullagan davrida hayotdan ko'z yumganiga sabab qilib amirni qoralab yozgan.

Qolaversa, Prezidentimiz I.A. Karimovning bir qancha asarlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning hayotiga bag'ishlangan bir qancha mavzularni ko'rish mumkin.

Mustaqillik yillarida esa Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlari alihida to'plam sifatida chop etildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi milliy mafkura va milliy g'oya asosida tariximizning Istiqlol kurtagi nish urgan davri- Mahmudxo'ja Behbudiy va Jadidlar davrini tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida ilmiy taxlil etishdir.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

Mahmudxo'ja Behbudiy Hayoti va faoliyatini o'rganish va tahlil etish;
Behbudiyning ilmiy me'rosini o'rganinish va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;

XIX-XX asrlarda Turkiston ilm- fani, adabiyotining rivojlanishi, yetishib chiqqan ilm- fan va adabiyot vakillarining ilmiy faoliyati, madaniy merosini o'rganish va tahlil etish;

Turkiston zaminidan yetishib chiqqan (XIX-XX asrlarda) jadidlarning xalq hayotida tutgan o'rnini, aniqlash va tahlil etishdan boratdir.

Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asosi. Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asosi o'zbek, rus va chet el tarixchilarining va adabiyotchilarining O'rta Osiyo madaniyati (XIX- XX asrlar) tarixiga bag'ishlangan asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallaridan umumta'lim muassasalarida, kasb- hunar kollejlarda, oily o'quv yurtlarida ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining xronologik doirasi. Bitiruv malakaviy ishining xronologik doirasi O'zbekiston tarixining XIX asrning 2- yarmi va XX asrning 1-choragini o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I. Bob Jadidchilik oqimining vujudga kelishi. Mahmudxo'ja Behbudiyning shaxsiy hayotidan

1.1 Jadidchilikning mohiyati. Jadidchilikning vujudga kelish tarixi

Mahmudxo'ja Behbudi XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga kelgan o'zbek xalqining buyuk, unitilmas farzandi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotlarida, xalq hayotida faol qatnashgan o'zbek madaniyatining eng buyuk namoyandasi, yangi zamon madaniyatining asoschisi edi. Mahmudxo'ja Behbudi Turkiston jadodlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil, istiqlolga erishgan xalq g'oyasining asoschisi, yalovbardori, yangi maktab g'oyasining ilg'or tashkilotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Mahmudxo'ja Behbudi tariximizning g'oyat og'ir va murakkab davrida yashadi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mahv bo'lishi va Vatanni butkul g'orat etilishi xavfidan asrab qolish, avlodlari erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlab o'z davbek xalqi tarixida jadidlar nomi bilan mashhur bo'lgan Behbudi boshliq millatparvar fidoiylar zimmasiga tushdi. Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan bugungi istiqlol kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish urib yetilgan edi.³

XX asr o'zbek madaniyati va maorifi, qolaversa bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki shu jadidlar oldida burchlidir. "Usuli jadid" yoki "usuli savtiya" (yangicha usul) nomlari bilan shuhrat qozongan yangi maktabni Turkistonda aynan mana shular tashkil qildilar. Ular birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida juda ko'p o'zbek yoshlarini Yevropaning taraqqiy topgan davlatlariga o'qishga yuborishga muvoffaq bo'ldilar. O'zbek teatrini birinchi g'ishtini qo'ygan, nashr, matbuotni ham boshlab bergan aynan mana shulardir. Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she'r va

³ Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat. 1997, B- 6-7

maqolalar, sahna asrlari orqali milliy ongini shakllantirishga urindilar. (Rossiya qonunlari imkon bergan darajada, Turkiston musulmonlarining sharafiga himoya qildilar). Inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.

Jadidchilik o'z harekati bilan xalq hayotida katta o'ringa ega. Jadidchilikning xalqimiz tarixidagi buyuk xizmati shundan iboratki, bu harakat xalqni, millatni ma'naviy-ma'rifiy uyg'onishga, o'z-o'zini anglashga, ozodlik, hurriyatga chaqirdi. Prezident I.A.Karimov o'zbek ma'rifatparvarlarining kurashi qanchalik muhim ekanligini shunday ta'kidlab o'tgan edi: "Men Abdulla Avloniyning "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdur."⁴

Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy. Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski, an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jo'g'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. So'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi. Yevropani oldinga olib chiqdi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak.

Demak, jadidlar fikricha, Rossiya musulmonlari uchun bugun birinchi masala ma'rifatdir. Qolgani ma'rifatdan keyin, to'g'rirog'i, ma'rifatdan boshlanadi. Lekin millatning savodi o'z tilida chiqmog'i kerak. Milliy tarbiya, muqaddas g'oyalar avlodning ongi tafakkuriga ona tilida singmog'i lozim. «Sut bilan kirgan» degan iborada gap ko'p.⁵

«...1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)i usuli jadidga qo'ymish edim,— deb yozadi Ismoilbek.— Samarasi umidimdan ziyoda o'ldi. Bir qoch (qancha)

⁴ I.Karimov, "Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz", T: 1999. B- 84

⁵ B.Qosimov, Milliy uyg'onish, T: Ma'naviyat.B-19

maktablar usulim(n)i qabul ila isloh o'ldilar. Soir (ko'p) viloyatlardan usul ko'rmiya (ko'rmakka) kelub-kedanlar o'lub, bu soyada har tarafdin iki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar...» Ushbu maktab tamom begona bir hodisa emas. Ismoilbek yangi maktabni shunday tushuntiradi: «Ota-bobo kunlaridan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir»-.1888 yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik «Xojai sibyon» («Bolalar muallimi») ni bosmadan chiqardi. «Usuli jadid»ga bo'lgan ehtiyojni tushuntirdi, «usuli qadam» dan farqiga e'tiborni qaratdi.⁶

«Xojalarga ta'limot» («Muallimlarga yo'llanma») faslida «usuli jadid» ning osondan murakkabga borishini uqtirib, xos xususiyatlarini 15 bandda ko'rsatib berdi. Unda bolaning eng muvofiq o'quv yoshi (6—7) dan tortib, o'quv soatlarining bolalar yoshiga muvofiq taqsimlanishi lozimligigacha, o'qish bilan yozishni qo'shib olib borishdan har bir harfni «sadosi bilan» o'rgatishgacha, darslar orasidagi tanaffusdan imtihongacha, qo'yingki, bugungi zamonaviy maktablarga xos barcha masalalar qamrab olingan edi. Darslikning har bir darsidan keyin savollar berilgan bo'lib, muallif fikricha ular o'quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun «buyuk vosita» edi.⁷

“Jadidizm” iborasi, arabcha “jadid” so'zidan yasalgan bo'lib, “yangilik tarafdorlari” degan ma'noni bildiradi. Jadidlar harakati ijtimoiy tafakkurni alohida bir qoim sifatida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllandi. Uning ijtimoiy zamini bo'lib, shu davrda shakllangan mahalliy milliy burjuaziya xizmat qildi. Turkistonda jadidchilining shakllanishiga turk va tatar burjuaziyasi mafkurachilari katta ta'sir ko'rsatdilar. Ammo o'lka jadidlari o'zlarining dunyoqarashlari, ilm-ma'rifat jihatidan turk – tatar jadidlaridan ancha ustun edilar. Ular millatimizning ilmiy – adabiy merosiga asoslanib rivojlanib bordi.⁸

Jadidchilik harakati eng avvalo ma'rifatchilik muhitidan kelib chiqib millatni ma'rifatli, bilimli qilish yo'li bilan ozodlikka chiqarishga harakat qilgan. Jadidchilikni ma'rifiy harakatlari ancha uzoq tarixga ega. Bu harakat

⁶ B.Qosimov, Milliy uyg'onish. T: Ma'naviyat, B-21

⁷ B.Qosimov, Milliy uyg'onish. T:Ma'naviyat,B-21

⁸ R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T: O'qituvchi, 2002, B-90

namoyondalari islom diniga kirib kelgan biddiyatlarni olib tashlash, Qur'oni Sharif, hadis, ularning asl tarjimalarini va islom tarixi kabi darslarni o'tish bilan birga arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishni joriy qilish kabi tadbirlarni amalga oshirishga intilgan. Masalan, bu qarashlarning asoschisi islomshunos Abu Nosir al Kursoviy bo'lgan.⁹ Keyinchalik bunday qarashlarni boshqa bir islomshunos Marjoniy davom ettirgan. Ammo jadidchilik harakati va jadidizm g'oyalari, shu ruhdagi yangi usuldagi maktablar, darsliklar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan. Madaniy-ma'rifiy oqim sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati asta-sekin siyosiy yo'nalish kasb eta boshladi. Uning yangi usulini Turkistonda birinchilardan bo'lib qabul qilgan odam Mahmudxo'ja Behbudiy bo'ldi.

Uning g'oyalari va amaliy faoliyati katta hayotiy ta'sir kuchiga ega edi. «Tarjimon» gazetasi Rossiya hududida nashr etilgan birinchi turkiy tildagi gazeta bo'lishiga qaramay, bir qator xalqlar taqdirida, milliy yangilanish harakati rivojida, undan o'sib chiqqan milliy ozodlik harakati jarayonida tutgan o'rni beqiyosdir. Chunki, 1883 yildan 1916 yilgacha chop etilgan gazeta Qohiradan Qashqarga, Qozondan Hindistonga qadar tarkalgan va o'z davrining mashhur nashrlaridan biriga aylangan edi. Agar dastlab gazetaning uch yuz obunachisi bo'lgan bo'lsa, 1885 yilga kelib ming nusxaga yetadi.¹⁰

«Usuli jadid» harakati vaqt o'tishi bilan o'z mevalarini bera boshlaydi. 1904 yilga kelib Rossiyaning o'zida besh mingga yaqin «usuli jadid» maktablari ochiladi.¹¹

So'ngra bu harakat Turkistonga ham yoyila boshladi. Ammo Turkiston general-gubernatori Kaufman yangi maorif tizimini rus hukumati uchun tahlikali bilib, ularning o'rniga rus-tuzem maktablari ochdiradi. 1915 yil ularning soni to'qsontaga yetadi.¹² O'quvchilarning 95 foizi rus bolalari edi. Nodir Davlatning yozishicha, 1879-1904 yillar orasida «Toshkent o'qituvchilar maktabi»ni bitirgan

⁹ R. SHamsutdinov, B. Rasulov. Istiqlol uchun kurash fidoyilari. Andijon, 1993.B-28

¹⁰ R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T: O'qituvchi, 2002,B-30

¹¹ R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T; O'qituvchi, 2002,B-30-31

¹² R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T; O'qituvchi, 2002,B-32

415 boladan 65 nafari turkiy millat vakillari (11 nafari o'zbek, turkman va tatar, 54 na-fari esa qozoq va qirg'iz) edi, xolos.

Ziyolilar va aholining asosiy qismi «usuli jadid» maktablari ochilishi tarafdori bo'lishgan. SHuning uchun ham I. G'aspirali fikrlarini qog'ozga tushirib, rus hukumatiga, nusxasini esa general-gubernator N.O.Rozenbaxga jo'natadi. Afsuski, natija kutilgandek bo'lib chiqmaydi. I. G'aspirali rad javob oladi. Shundan keyin, samimiy munosabatda bo'lgan Buxoro amiri Abdulahadga murojaat etib, yangi usuddagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahad 1893 yil boshida Rossiya ziyorati sirasida Boqchasaroyga kelib, Ismoil G'aspirali bilan tanishib, uzoq suhbat quradi. O'sha uchrashuvda uni Buxoroga taklif qilgan.

Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan I. G'aspirali 1893 yilning may oyi oxirida Buxoroga tashrif buyuradi. Safari davomida Samarqand va Toshkentda ham bo'lib, bir qator eski usuldagi maktablarni borib ko'radi. Mutasaddi rahbarlar, shu jumladan, N. Ostroumov bilan Turkistondagi maorif tizimi xususida suhbatlashadi.

Amirning Shahrisabzdagi yozgi qarorgohida mehmon samimiy qarshi olinadi. Uzundan-uzun suhbatlar chog'ida o'z fikrlariga xayrixoxlik topadi. Ammo shunga qaramasdan maqsadiga erisha olmaydi. Sababi, bu vaqtga kelib, Buxoro amiri chor hukumatidan izn olmay turib, biror masalani o'zi hohlaganicha hal etish erkidan mahrum edi.¹³

“Usuli jadid” haqidagi xabarlar o'lkada juda tez tarqab bordi. Bu yangi maktablarning mo'’jizali qudrati haqidagi xabar barcha musulmon o'lkalarga, jumladan Farg'ona vodiysida ham keng yoyila boshlandi. Bu davr talabi, ma'naviy ehtiyoji edi.

Turkistondagi birinchi jadid maktabi 1893 yili Ismoil Gaspirinskiyning bevosita yordami va madadi bilan Samarqandda ochilgan. 1893 yili Gaspirinskiyning Buxoro amiri Abdulahad bilan ko'rishmoq niyatida kelgan bo'lib, M. Behbudiy bilan hamkorlikda yangi maktab ochadilar. “Birinchi bo'lib (Husaynov mablag'i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1898 yili Qo'qonda, Eski

¹³ R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T: O'qituvchi, 2002,B-32

Toshkentda Mannon qori, Andijonda Shamsutdin domla tomonidan jadid maktablari ochildi.” Qo’qondagi birinchi jadid maktabi 1893 yilda Mirayubboy mahallasida tashkil qilingan. Bu shahardagi eng yirik maktablardan biri bo’lgan. undagi 100 o’quvchiga o’qituvchi Ahmadjonqori va uchta yordamchisi ta’lim bergan. 1899 yilda Hojibobo mahallasida masjid qoshida yangi usul maktabi ochilgan. Unda 25 nafar o’quvchi o’qigan va 1908 yilgacha tatar o’qituvchi, keyin o’zbek Xo’jaxon Ahmadxo’ja o’qituvchilik qilgan. Ustai Banaul mahallasida 1899 yili ochilgan yangi usul maktabida 115 o’quvchi o’qigan va o’qituvchi Mahmudjon hoji Muhammedov dars bergan. Boshqovoq masjidi qoshida 1900 yilda ochilgan yangi usul maktabida 115 o’quvchi bo’lib, tatar Salohiddin Mazitov ta’lim bergan. Dahma Dihan mahallasida 1901 yilda, G’alchasoy mahallasida 1901 yilda, Bekbachcha mahallasida 1904 yilda yangi usul maktabi tashkil qilingan.¹⁴

1900 yili Andijonda Azim Qodirov 3 sinfli yangi usul maktabini tashkil etgan. Tohirjon Qozoqovning yozishicha, “Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo’lib, 1-sinfda bolalarga o’qishni va yozishni, 2-sinfda tavjid, hisob, 3-sinfda ibodati islomiya, sarfi turkiy o’rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qori ishtirokida ushbu maktab o’quvchilaridan imtihon olingan. O’quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar.”¹⁵

Qo’qon shahrida jadid maktabini yana bir atoqli o’zbek shoiri Hamza tashkil etgandir. Hamza madrasada o’qib yurgan yuzlaridayoq Qo’qon shahrida ilg’or fikrli talabalar 1908 yilda “Shamsinur” nomli ma’rifatparvarlik jadidlar guruhini tashkil qiladilar. Bu guruh a’zolari ayrim mansabdor va mudarrislarining mutaassibliigi va jaholatparvarligiga qarshi, Turkiston maktab va madrasalarida o’qish-o’qituv ishlarini isloh qilish va aniq bilimlardan dars berishlari uchun kurashga chaqirilgan qo’lyozma varaqalar tarqatar edilar. Hamza 1911 yilda Qo’qonda hamfikir do’sti Miraziz yordamida Hojibek guzarida yangi usul maktabini ochib, unda o’zi dars beradi.

¹⁴Jadidchilik va milliy istiqlol tantanasi. T: 2002B-67

¹⁵ T. Qozoqov, Farg’onada jadid maktablari, Fan va turmush, 1998, №5,B- 8

Aslida Hamza o'zining dastlabki yangi usul maktabini 1910 yil Toshkentdagi Qashqar darvozada ochadi. Bu ochgan birinchi maktabi sakkiz oydan keyin turli bahonalar bilan yopib qo'yiladi.¹⁶

Hamza bolalarni o'quv qo'llanmalari, ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash maqsadida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi. Hamza ochgan maktabning dovrug'i Qo'qon shahridan tashqariga ham tarqala boshlaydi. "Mahalliy ma'murlar bundan hayiqib, 1913 yilda maktab va jamiyatni berkitadilar"¹⁷ Aslida bu maktab ochilganidan keyin to'rt oydan keyinroq yopib qo'yilgan edi.

Hamza yana 1914 yilda Marg'ilon va Qo'qonda yana jadid maktablarini tashkil etadi. Afsuski, bu maktablar ham chor ma'murlari tomonidan majburan yopib tashlanadi.

Hamzaning "O'qish kitobi" 1914 yilda yozilgan bo'lib, u 2-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Bu darslik 9 darsga taqsimlangan bo'lib, muallifning 15ta ma'rifiy-tarbiyashunoslikka doir asarlari berilgan.¹⁸

Yana bir maktabchi jadid Muhammadsharif So'fizodadir (1869-1937). Bu jadid 1913 yili Chustda yangi usuldagi maktab ochib, maktab eshigining tepasiga shunday deb yozdirib qo'yadi: "Men ul bo'yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o'n ikki oyda oq qilaman."¹⁹ Uning maktabida ona tili, jo'g'rofiya, handasa kabi dunyoviy fanlar o'qitilgan. Diniy darslar deyarli o'qitilmagan.

Bu maktabdan tashqari, Qamasadada ham u yetim bolalar uchun "Dorulatoyin" (Yetimlar uyi) va kattalar uchun kechki kurslar ochadi.²⁰

Turkiston jadidlarining peshvolaridan bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lini zamondoshlari "Toshkent jadidlarining otasi" deb ham atashgan. Darhaqiqat, u 1900 yildan boshlab milliy-ozodlik uchun kurashga bel bog'lagan toshkentlik ziyolilarga yetakchilik qilgan, asrimiz boshlarida paydo bo'lgan jadidchilik harakatining nazariy qarashlarini, dasturini ishlab chiqishda aqliy

¹⁶ O'zbek tili va adabiyoti, 1995, №3, B-13.

¹⁷ J. Yo'ldoshev, S. Hasanov, Jadid tarbiyashunoligi asoslari, T: O'qituvchi, 1994, B-66.

¹⁸ Jadidchilik va milliy istiqlof tantanasi. T: 2002, B-77

¹⁹ J. Yo'ldoshev, S. Hasanov, Jadid tarbiyashunoligi asoslari, T: O'qituvchi, 1994, B-68.

²⁰ R. Rasulov, Shoir So'fizoda haqida, G'. G'ulom nashriyoti. T: 1968, B-68

salohiyatini namoyon etdi, amaliy faoliyatiga boshchilik qildi. Jadidchilik harakati haqida gap ketganda Ismoil G'asprali, Mahmudxo'ja Behbudiylar qatorida haqli suratda Munavvar qorining nomi ham hurmat bilan tilga olinadi. Zotan, uning deyarli ongli hayoti ana shu harakat bilan chambarchas bog'langan edi.²¹

Munavvar qori ham ana shu oqimga mansub shaxs sifatida ijtimoiy faoliyatga kirib keldi.²²

Olim Sirojiddin Ahmad ham Munavvar qorining ochgan jadid maktablari haqida bir qancha ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, Munavvarqori 1901-1904 yillarda qrimlik do'sti Rasim Kishod yordamida Toshkentda "usuli savtiya" maktabini ochadi. U maktabni avval o'z hovlisida, keyin esa boshqa joylarda ochishga harakat qilgan. Bu ishda unga tog'asining o'g'illari Hasanxo'ja va Eshonxo'ja Xoniy yaqindan yordam berishadi.²³

Munavvarqori "jadidchilik davri" atalg'on uyg'onish davrimizning eng buyuk siymosi va bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyotimizning bonisidir. U Turkistonning taraqqiyparvar, millatparvar naslining ilk ustози, ilk mohir gazetachisi, ilk mutafakkiridir. Munavvarqori bizning Turkistonning eng ishlakli bir jamoat xodimidir.²⁴

Munavvar qori matbuot so'zining qudrati naqadar ulkan ekanligini yaxshi aiglaganligidan fevral inqilobidan keyin ham gazetalarga muharrirlik qiladi. (Najot" va "Kengash"), talaygina publisistik maqolalar bilan chiqadi. Munavvar qorining ushbu jurnalda e'lon qilinayoggan ayrim maqolalarida uning publitsistik salohiyati aniq sezilib turibdi. Olaylik "Bizning jaholat - jahli murakkab" maqolasini. Aytish mumkinki, bunda publitsist Munavvarqorining jasorati ochiq ko'ri-nadi. Madrasalarga o'rnatilib, necha asrlardan buyon mustahkam tus olgan ta'lim tizimini o'zgartirishga, isloh qilishga u dadil jur'at etgan. Axir, dinning, ulamolarning ta'siri kuchli bir paytda bunday dadil harakatni jasorat deyish mumkin, xolos.

²¹Jadidchilikning ko'zga ko'ringan vakillari.T: Ma'naviyat.2002.B-162

²²J. Yo'ldoshev, S. Hasanov, Jadid tarbiyashunoligi asoslari.T: O'qituvchi, 1994,B-23.

²³Sharq yulduzi, 1992, 5-son,B- 107

²⁴Guliston., 2001, №5, B-55

Munavvarqori jadid maktablari ochish bilan cheklanmay, ular uchun darsliklar ham yaratgandir. U jadid maktablari uchun yangi tovush usulida darsliklar “Adibi avval” (“Birinchii adib”, 1907), “Adibi soni” (“Ikkinchi adib”),²⁵ “Er yuzi” (Jo’g’rofiya), “Havoyiji diniya” kitoblarini (1907 yilda) nashr ettirgan. 1914 yilda Salim Ismoil Ulviyning Qur’on qiroati bo’yicha saboq beruvchi “Tajvid” ini o’zbekchaga tarjima qilib, Orenburgda nashr ettirgan.²⁶

1910-1911-yillardan boshlab usuli jadid maktabini ochgan A’zamxon, Muslimxon (Munavvar qorining akalari), Hasan qori Xoniy, Eshonxo’ja Xoniy, Nizomiddin Husainov, Rustambek Yusufbekov, Sa’dulla qori Abdul-laev va boshqa ko’pgina toshkentlik, qo’qonlik, namangan-lik, farg’onalik domlalar A. Ibodov, A. SHukurov asarla-ri bilan bir qatorda zikr etilgan kitobni ham qo’llay boshladilar. Ko’pgina maktablarda Munavvar qorining 1-4 sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Dast-labki usuli jadid maktablarining 1-sinfida «Adib-us-soniy», «Havoyiji diniya» hisob (yuzdan yuqori son va barcha amallar), 3-sinfda So’fi Olloyor kitobi, o’qish va yozish, Qur’on, «Havoy-iji diniya» (II qism), «Tarixi anbiyo», SHapochnikov va Vol’tsov qalamiga mansub «Arifmetika», «Nasihati at-fol», «Tajvid», 4-sinfda Qur’on, «Tarixi anbiyo», «Daxr-un-najot» (Munavvar qori asari), R. Faxriddinovning «Nasihat», «Hisob masalasi», arab tili, «Dur-ul-shi-fohiya», Abdushukurovning «Fors tili» kitoblari o’qitilgan.

Maktab o’quv tizimini chuqur o’rgana boshlagan Munavvar qori bular bilan cheklanmay, dasturni tobora takomillashtirib boradi. 1912 yilga kelib, o’quvchilarga husnixat, jo’g’rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi fanlarini oshkora o’qita boshlaydi, maktab ostonasiga qorovul qo’yib, ijtimoiy sohalardan saboq beradi. U mahalliy o’qituvchilar orasida birinchi bo’lib «Namuna» maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o’qitish masalasini hukumat oldiga ko’ndalang qo’yadi. Dushmanni yengmoqchi bo’lsang, uni o’rgan aqidasi-ga amal qilgan Munavvar qori quyidagi «Maviza» bitmasini beradi:²⁷

²⁵ O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, Pedagogika, T: O’qituvchi, 1997,B-150

²⁶ SHarq Yulduzi, 1992, №5,B-108

²⁷ Jadidchilikning ko’zga ko’ringan vakillari.T.: Ma’naviyat.2002.B-24

63 Jadidchilikning ko’zga ko’ringan vakillari.T: Ma’naviyat.2002.B-90

Xullas, jadidchilik mamlakatimiz va xalqimiz hayotida muhim o'rin tutgan harakat sifatida namoyon bo'ldi. Bu harakat mohiyati jihatidan ancha ilg'or va teran fikrga ega edi.

1.2 Mahmudxo'ja Behbudiyni shaxsiy faoliyati

Mahmudxo'ja Behbudiyni Xoji Muin (Behbudiyni yaxshi bilgan, uning e'tiboriga sazovor bo'lgan hamkasbi, shogirdi. Behbudiyni 1914-yili hajga ketishdan

oldin “Oyna” jurnalining muharriri etib aynan Xoji Muinni qoldirgan) ning yozishicha 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291- yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo’ja Solihxo’ja o’g’li turkistonlik, Ahmad Yassaviy avlodlarida, ona tomonidan bobnosi Niyozxo’ja urganchlik bo’lib Amir Shohmurod zamonida(1785-1800-yillarda Buxoro amiri) Samarqandga kelib qolgan²⁸.

Behbudiy haqida yozishda unfa har taraflama yondashish kerak, ya’ni u adabiyot va ma’rifat olamidagina emas, butun SHark tafakkuriy-falsafiy taraqqiyotida ham ulkan mavqega ega. Bundan 70 yil muqaddam - 1926 yili sharqshunos Laziz Azizzoda Behbudiy to’g’risida juda o’rinli yozgan edi: «Agar O’zbekistonda Navoiy va Ulug’bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo’yiladigan bo’lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykali bo’lg’usidir». Laziz Azizzoda o’z so’zlari bilan Mahmudxo’ja Behbudiyini, shakshubxasiz, SHarkning buyuk mutafakkirlari qatoriga qo’yadi. Behbudiy hazratlari ular bilan bir safda bo’lishga to’la haqli. Zotan bu siymoning ona-Vatan kelajagi haqidagi orzu-niyatlari va dunyoqarashi bugungi davlatimiz milliy istiqlol mafkurasi bilan hamohang.²⁹

Tadqiqotchilarning ko’pchiligi Mahmudxo’ja Behbudiy kambag’al oilada tug’ilib o’sganligini aytishidi. Keyingi tadqiqotlar aslida bunday emasligini ko’rsatdi. Mantiqan olib qaraganda, ta’limga ega bo’lish, kitoblar sotib olish, kutubxona bilan qiroatxona tashkil etish, nashriyot ochib, nashr ishlarini yo’lga qo’yish, chet ellarda Turkistondan borib o’qiyotgan talabalarga moddiy yordam berib turish va shunga o’xashash mablag’ talab qiladigan ishlar uchun Mahmudxo’ja Behbudiyning sarmoyasi yetarli bo’lgan va buyuk ma’rifatparvar undan oqilona foydalana olgan.1913-yildan boshlab muharrirlikni ishiga asosiy vaqtini bag’ishlagan Mahmudxo’ja Behbudiy Samarqandga yaqin qishloqlarda gog-gohida muftiylik vazifasini ham o’tab kelgan, ammo bu ishi uchun oladigan aqchasi yuqoridagi chiqimlarni qoplash uchun yetmas edi, albatta. Etnagraf

²⁸Sh.Turdiyev. Ma’rifatparvar va murabbiy. Sovet O’zbekistoni.T: 1992. 10-may.B-4

²⁹ Sh.Turdiyev. Ma’rifatparvar va murabbiy. Sovet O’zbekistoni.T: 1992,B- 7

G.Andreev bilan bo'lgan suhbatda u kuyunib “Jurnal nashr qilish hozircha moddiy jihatdan zarar keltirmoqda”,- deb aytgan. Lekin muharrilik vazifasidan oldin Behbudiy Samarqandda muftiylik vazifasini ham o'tagan va uning shahar ahli orasida ma'lum va mashhur bo'lgani uchun ham bu lavozim unga katta daromad keltirgani ma'lum. Bu vaqtda u o'z mablag'iga yangi usul jadid maktabini ochadi va bu yerda ishlash uchun Rajab Amin qishlog'idan Abduqodir Shakuriyni o'zining uyiga ko'chirtirib keltiradi.³⁰ SH.Ochilovning yozishicha, Behbudiyning otasi Behbudxo'ja muftiylik vazifasida bo'lgan- bu xizmati uchun unga o'sha davrda yaxshigina haq to'langan. ³¹Behbudiyning otasi o'z davrining fiqh sohasi bo'yicha yirik mutahassisi bo'lgan va islom huquqshunosligi masalalariga oid bir qator asrlarning muallifi sifatida ham tanilgan edi. N.H Avazovning takidlashicha, M.Behbudiy ota meros kasb egasi, ya'ni Qur'oni Karimni yod bilgan qori bo'lgan.Uning buvasi Solihxo'ja imomlik qilib ro'zg'or tebratgan, Mahmudxo'janing oilada yagona o'gil bo'lganini hisobga olsak, u holda unga yaxshigina meros ham qolgan bo'lishi kerak. Bu so'zlarning tasdig'i sifatida Behbudiylar oilasining Jomboyda vaqf mulk egasi va Baxshitepada kattagina ko'rkam bog' yerlarining bo'lgamligini ko'rsatish mumkin.(Behbudiyning o'g'li Nadim Behmudiyning xotiralarida) . Xullas, Behbudiy juda boy inson bo'lgan, deyish mumkin.³²

Mahmudxo'jalar oilasi nihoyatda ma'rifatli edi. Uning ikki singlisi ham yaxshi ta'lim olgan. Ular Qur'on va hadislar bilan yaxshi tanish bo'lgan. Katta singlisi, hatto “qoribegim” invoniga edi. Nadim Behbudiyning guvohlik berishicha, ularning kelib chiqishi Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Behbudiy ajdodlari Xorazmdan Samarqandga ko'chib kelib, guzar tuzishadi va uni Guzari Mahdumi Xorazm (“Xorazmlik janob guzari”) deb atashadi degan ma'lumot ham bor. Otasining buvasi Samarqandda Qori Niyozxo'ja Urganji nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.Nadim Behbudiyning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning xotini shayx Qutbi Chordah urug'idan bo'lib, bu ulug' Amir Temur hukmronligi

³⁰Abbosova L. Fan va turmush. T.: 1995.2-son.B-17

³¹ Abbasova L. Fan va turmush. T; 1995.2-son,B- 19

³² A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-56

davriga qadar Samarqand yaqinidagi Matrud degan yerda xizmat qilishgan. Tepaqo'rg'onda shayxning qabri bo'lgan va bu qabr joylashgan mozar Rossiya tomonidan bosib olingach, qal'a barpo qilish uchun portlatilib yuborilgan.³³

G.Andreev bilan bo'lgan suhbatida M.Behbudiy uning avlodida arablar bo'lganligini aytadi: "Bu, albatta, ancha oldin, 100-200 yillar oldin bo'lgan bo'lsa kerak. Hozir esa bizningurug'imizda arablardan nom-nishon yo'q, hech asar qolmagan". Bu yerda unga dastlabki ma'lumot bergan to'galari- onasining ukalsrini ko'zda tutib gapirgan, bo'lsa kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshidayoq Qur'onni o'qishni tog'asi Muhammad Siddiqdan o'rganadi. 15 yoshidan boshlab yana bir tog'asi-mullo odildan arab tili grammatikasini, matematikani, huquqshunoslik asoslari, mantiq va tilshunoslik, ya'ni o'sha paytda mavjud bo'lgan dunyoviy fanlarning barchasini o'rganishga kirishdi. U undan keyin madrasalarda diniy-dunyoviy bilimlarga ham ega bo'ladi. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngra esa Buxoroda yaxshigina tahsil olgan. Turk tadqiqotchisi Ibrohim Yorqinning yozishicha Behbudiy Buxoro madrasasida uzoq vaqt yashaganini va Buxoroda 1910-yilga qadar-muftiyn unvonini olgunga qadar yashaganini aytib o'tadi. Behbudiy G.Andreev savollariga javob berishda madrasa tahsilini yaxshi egallaganini aytib o'tgan. Xullas, Behbudiy yoshligidan ham dunyoviy, ham diniy puxta ta'lim oldi.³⁴

1893 yili Behbudiyning otasi vafot etadi va 18 yoshlik Mahmudxo'ja mustaqil hayotga qadam qo'yib, qozixonaga mirza bo'lib ishga kiradi. Mirzalik ishi unga, birinchidan, jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari turmushi, hayotiy muammolari bilan yaqindan tanishish uchun sharoit yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, tog'alarinikida olgan saboq va bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini berdi. Fiqx fanining turli soxalaridan imtixon topshirgan M.Behbudiy muftiyn unvonini oladi. Fikrimizcha, u bu unvonga I.Yorqin ko'rsatgan vaqtdan ancha avval sazovor bo'lgan. 1899 yili 25 yoshli Behbudiy birinchi marta haj safariga chiqadi. Islom dunyosida muqaddas ziyoratgox sanalgan Makka-yu Madinaga qilgan safari uning dunyoqarashini kengayishiga sabab

³³ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-67

³⁴ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-87

bo'ldi va umumjahon tarzda fikrlashga zamin yaratdi. Sayoxat chog'ida u Rossiya shaharlari Qrim, Eron, Turkiya, Misr mamlakatlarida bo'ldi. Safar jarayonida yo'l yurishning barcha turlari - poezdda, kemada, otda va piyoda yurib, dunyoni ko'rdi, boshqa yerdagi hayot bilan Turkistondagi yashash tarzini taqqoslash imkoniga ega bo'ldi. Bundan tashkari, savdo ishlari, zarur va muxim bitim va munosabatlar tuzish, ham diniy, ham dunyoviy aloqalar o'rnatilishi, fikr almashish, zarur kitoblar, gazeta va jurnallar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar sotib olish... Bularning bari Behbudiy Vataniga qaytib kelgach, ma'rifat va ziyo tarqatishdek savobli va ulug' ishlar uchun asqotdi. SHunday qilib aytish mumkinki, Behbudiyning dastlabki xaj safari ulkan ma'naviy va moddiy ahamiyatga molik edi.

Xaj safari chog'ida Behbudiy Arab dunyosi mamlakatlari, Turkiya va Misrda jadidchilik chuqur ildiz otganini ko'rdi, u yerlarda ta'lim-tarbiyaning yangi usullari bilan tanishdi, isloh qilingan Madrasa va pedagogik tizimni o'rgandi, Dastlab tog'asi qozi Muhammad Siddiq, keyinchalik qozi mulla Zubayr qo'lida mirzalik qilib tajriba orttirgan 25 yoshli Behbudiy uchun arab dunyosida ko'rgan-bilganlari keyinchalik ko'p muammolarni hal etishda qo'l keldi. Qozixonadagi ish Behbudiyning talay ijtimoiy muammolar bilan to'qnashtirgan edi. Albatta, u Rossiyaga qaram bo'lgan Turkiston ijtimoiy-siyosiy, diniy, huquqiy tizimlari va iqtisodiy ahvolidan to'la xabardor, vatandoshlar g'am-alamlariga sherik edi. Behbudiy hayotda ko'pgina narsalarni o'zlashtirish, yaxshilash, takomillashtirish, musulmon mamlakatlarida ham umumjaxon sivilizatsiyasi bilan hamohang taraqqiyotga erishish mumkinligiga ishonchi mustahkamlana bordi.³⁵

Haj safaridan uch yil o'tgach, 1903-1904 yillarda Mahmudxo'ja Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg, Qrimda bo'ldi. Maorif sohasidagi Rossiya, ayniqsa, tatar qardoshlar tajribasi, Ismoil Gasprinskiy bilan yakindan tanishuv Behbudiyning butun sa'y-harakatini jamiyatni qayta qurish rejalarini amalga oshirishga qaratdi. 1914 yilga qadar bu borada u anchagina tajriba orttirdi. Yangi usul maktablari ochilgani, jadid gazetalari nashri, darsliklar yaratilganligi, Turkistondagi aql-zakovatli kuchlarning uning g'oyasi atrofida uyusha boshlashi, madaniyat va adabiyotda yangi tamoyillar, ilg'or

³⁵ Abbosova L. Fan va turmush. T: 1995.2-son B-14

yo'nalish va oqimning paydo bo'lganligi Behbudiyni yanada shijoat bilan faoliyat yuritishga da'vat etar edi. Shu bilan birga, Behbudiyning maqolalarida o'zi bu ishlarni hali to'la ko'nikish hosil qilmaganini, o'z loyihasini yangilab, uni dadilroq amalga oshirish niyatini yaqqol ko'ramiz.³⁶

Yanada ko'proq ozuqa olish istagi uni navbatdagi chet el safariga undaydi. Bu niyatni u o'z o'kuvchilariga «do'xtirlarning maslahati» deb izohlaydi va salomatligini tiklash maqsadida rejalashtirganini bildiradi. Qozixonadagi sermashaqqat ish, ilmiy faoliyat (bu paytga kelib u 7-8 kitob nashr etishga ulgurgan edi), «Oyna» jurnalida oson bo'lmagan ishlar, tashkiliy va iqtisodiy qiyinchiliklar, kitob savdosini tashkil etish bilan bog'lik muammolarning hammasi Behbudiydin g'ayrat, kuch va quvvat talab etar edi. Safar chog'ida u dam olish bilan birga o'z dunyoqarashini kengaytirish, jiddiy aloqalar o'rnatish, madaniyat va maorif soxalarida boshqa mamlakatlarning tajribasini o'rganishdek o'z rejalarini belgilab olib, Turkiya va Misr hamda arab dunyosining turli mamlakatlariga uzoq - sakkiz oylik safarga o'tlanadi. Bu ham xaj safari, ham ulug' mutafakkirning olamni bilishdek buyuk maksad sari intilishi edi. Uzoq va sermashaqqat yo'l davomida Behbudiyni ulkan va keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. U sayr etgan barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti, geografiyasi, tarixi, ijtimoiy-siyosiy axvolini o'rganadi va bular haqida «Oyna» jurnalining 15 ta sonida «Sayohat xotiralari» nomi ostida kundalik yozuvlarini e'lon qiladi. Behbudiyni xotira kundaligi hamma tomondan (barcha jixatlari bo'yicha) qiziqarli va foydali bo'lib, unda mamlakatlarning ahvoli, xalqlarning xo'jalik turmushi, ziroat yuritish madaniyati, maishiy hayoti madaniyati, savdo-sotiq va ko'plab boshqa narsalar atroflicha yoritiladi. «Sayohat xotiralari»da Marv, Bayramali, Krasnovodsk, Boku, Kislovodsk, Jeleznovodsk, Yessentuki, Odessa, Rostov va boshqa shaharlar haqida to'la ma'lumot bayon etilgan. Turkiya va Jazoir, Suriya kabi arab mamlakatlarining bayoni esa to'laqonli, mukammal harakter kasb etadi. Bu yerda shaharlarning me'morchiligi va mamlakatlarda siyosiy vaziyatdan tortib to jamiyatla ayollarning tutgan o'rni, aholining mashg'uloti, kiyim-kechagi va liboslaridagi o'zgarishlar, bank xizmati va faoliyati, temir yo'llar hamda

³⁶ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiyni va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-90

mehmonxonalarda tunash va uning narxi, bahosigacha o'z aksini topgan. U ko'rgan-kechirganlarini taroziga solib, ularni bir-biriga taqqoslab va solishtirib, mamlakatlar rivojida ijobiy va salbiy, ilg'or va qoloq, taraqqiyotni oldinga va orqaga tortadigan yo'nalishlarini tahlil qilib, xulosa chiqaradi. Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorilfununida farang, olmon va ingliz tillari o'qitilishi, yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga xavas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona Turkistonning taraqqiyotda naqadar ortda qolganligini afsuslar bilan yozadi. «Bu yerda, Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan yoshlar kelib o'qishadi», - deb nadomat ila bong uradi u. Behbudiy kutubxonalar, u yerdagi juda kuplab jurnal va gazetalar hayratga soladi. Shak-shubhasiz, Behbudiy nafaqat sayohat qiladi, balki shu mamlakatlar xalqlarining boy ilmiy va ijodiy merosini o'rganadi.³⁷ Bu kabi sayohatlar Behbudiy bilimining boyishi va insopparvarona falsafasining, ilg'or rivojiga juda ulkan xissa qo'shadi. Behbudiyning teran fikri va soglom akl-zakovati uni ona Turkiston ijtimoiy-iktisodiy na madaniy taraqqiyotiga erishuv yo'lidagi orzu-o'y va g'oyalarini amalga oshirishga undadi. Shu bilan birga, u muqaddas Ka'bani ziyorat etib, ruhan yengil tortadi, inson zakovatiga tasanno aytib, hamdu-sanolar o'qiydi. Xayolan u mo'tabar Makka shahri bunyodkorlariga «Ey o'tmush muqaddas musulmonlar! Ey boniylar! Ey fotihlar! Ollox sizlarni nihoyatsiz rahmatlarga g'arq etsunki, zamonangizda bu qadar lohutiy asarlarni bizda etibsiz. Chin musulmonlar, haqiqiy insonlar sizlarsiz» -deb hayqiradi, ehtirom aylaydi. Biroq hayotiy muammolar uni ko'proq qiynaydi va bu narsa safar kundaliklarida o'z aksini topadi. Bu borada jadidchilik masalalari bo'yicha" olmoniyalik tadqiqotchi professor Ingeborg Baldaufning quyidagi fikriga kushilamiz: «Mahmudxo'ja Quddusi sharifga sayohati bahonasida o'quvchilarga ko'nglining tubida cho'kib yotgan g'am-anduhlarini, O'rta Osiyoning dard-tashvishlarini bayon etish hamda vatandoshlariga ularning xatolarini ko'rsatib berish uchun bu asarni bitgan». Olmon tadqiqotchisining fikricha. Behbudiy xotira kundaliklaridagi geografik va savdo-sotiqqa oid qaydnomalar yaqin kelajakda mamlakatlararo savdo-sotiqqa va sayyohlik aloqalarining vujudga kelib o'rnatilishi

³⁷ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-90

niyatida yozilib ketilgan. Shu bilan birga, «Sayohat xotiralari», «Oyna» jurnalining o'zi singari, O'rta Osiyo burjuaziya vakillari va sarmoyadorlariga dunyoni Parijdan Yaponiyaga qadar aks ettiruvchi oyna bo'libgina qolmasdan, balki Turkiston uchun musulmon Sharqini, islom dunyosini kashf etdi, uning sivilizatsiyasini ko'rsata oldi desak, mubolag'a bo'lmas.³⁸

U o'z sayohatlaridan o'ziga xos xulosa chiqardi va o'z harakatlarini dadil amalgam oshirishga kirishdi. Lekin uning harakatlari Buxoro amiriga ham, rus mustamlakachilariga ham birdek yoqmagan edi. U doim taqib va bosim asosida yashadi. Shuning uchun unga jismoniy tazyiq o'tkazish va kerak bo'lsa uni yo'q qilish chorasi ko'rildi. Ular o'z maqsadiga erishdilar.³⁹

Xullas, Behbudiy shu tariqa halok bo'ldi. Uning o'limi tarixda katta judolik bo'ldi.

³⁸ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-98

³⁹ Jadidchilik va milliy iftihor tantanasi. T: 2002,B-111

II-Bob. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatchilik faoliyati

2.1. Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik rivojiga qo'shgan hissasi

Behbudiyning tabiati va faoliyatidagi yuksak darajadagi ilm, bor kuch-g'ayratini xalq ma'rifati yulida sarf qilishga bo'lgan intilishi uo'idagi ishchanlik va tadbirkorlik, har bir narsani o'z yo'lida imkoniyat darajasida ishlatish qobiliyati bilan uyg'unlashib ketgan edi. U nafaqat ma'rifatchilik nazariyotchisi va tashviqotchisi, balki u yana butun Markaziy Osiyoda bilimlarni amalda tarqatish tizimini barpo etgan inson edi.⁴⁰

Mahmudxo'ja Behbudi padari buzrukvori nomi berilgan «nashriyoti Behbudiya» xususiy nashriyot egasi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Andijon shaharlaridagi kitob do'konlarining xo'jayini, «Oyna» jurnali muharriri sifatida mashxur bo'lgan inson edi. Xususan, Samarqanddagi kitob do'konini u o'zining xovlisida ochgan edi. «Behbudiya» kutubxonasi Samarqandning ruslar istiqomat qiladigan qismida ochilgan edi. Bu shunchaki kutubxona emas, balki do'kon ham edi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar Istambul, Misr, Bayrut, Qozon, Boqchasaroy, Orenburg, Eron, Iroq, Hindiston, Afg'oniston, Peterburg va albatta Turkistonda chop etilgan kitoblarni ko'rib, sotib olishlari mumkin edi. Zamoshdoshining guvohlik berishicha, bu kutubxona Behbudi vafotidai so'ng Turkistonda eng yirik kutubxonalardan bo'lib qoldi.⁴¹ Unda Qur'on va hadislarining turli nashrlarini, fors, turk, arab va rus tillarida chiqqan ilmiy asarlarni sotib olish mumkin bo'lardiki, bu yerda kitoblarni bahosi odatda ancha arzon belgilanardi.⁴² Dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan Turkistonga katta xajmdagi kitoblarni eksport qilish, bu bilan bog'lik bo'lgan tashkiliy ishlar, avvalambor, moddiy jihatdan keng imkoniyatga ega bo'lishni, xalqaro aloqalar o'rnatish, ishbilarmonlikni talab etar edi. Vaxolanki, bu sifatlar va imkoniyatlar Behbudiya mavjud edi. Kutubxonada qiroatxona ham ochilgan edi. Nadim Behbudiyning so'zi bo'yicha Behbudi bu yerda ilmiy ish bilan shug'ullanuvchilarga, miya faoliyatini kuchaytirish uchun foydali bo'lishini nazarda tutib shirin choy berilishiini buyurgan ekan.

⁴⁰ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Sharq.5-tom B. 9

⁴¹ A.Alimova. Mahmudxo'ja Behbudi va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B. 91

⁴² Unitilmas siymolar.. T: Akademiya.1998,B. 10

SHu kichkinagina fakt Behbudiyning ilm va bilimga chanqoq odamlarga bo'lgan munosabatini, g'amxo'rligini ko'rsatib turibdi.⁴³

Qomusiy aql egasi, insonparvar bo'lgan Behbudiylar tarix fanining ahamiyati haqida gapirib, insonniig kamol topishida va jamiyatni boshqarishda bu fanning o'rni beqiyosligini ko'p marotaba ta'kidlab o'tgan. Uning: «Moziy istiqbolning tarozisidir»², - degan xitobi tarix va o'tmish tajribasida o'zining haqligini isbotladi.⁴⁴

Behbudiyning fikricha, jamiyat rivoji va taraqqiyotida jamiyat ongida tarix fani qanday o'rin tutishi kerak? Uning bu muammoga bo'lgan munosabati «Tarix va jo'g'rofiya» maqolasida o'z aksini topgan bo'lib, bu tadqiqot jiddiy masalalari ko'tarib chiqqan asarlardan biri sanaladi. Mutaassib islom namoyondalarining qotib qolgan dunyoqarashi xukmronlik qilgan davrlarda bu fanlar bid'at va gunox xisoblangan edi, shunga qarshi Behbudiylar o'sha vaziyatda tarix va jugo'rofiyaning muhimligi va zarurligini, diniy aqidaparastlarga qarshi turib, bu ikki fanning jadid maktablarida bugun yoki kecha kashf etilmaganini, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo'lib kelganini isbotlaydi.⁴⁵

Tabiiy va ijtimoiy fanlari Behbudiylar «Aqli ilmlar» deb nomlangan umumiy tushuncha ostida birlashtiradi. Xalqlar tarixi, mamlakat tarixi, islom tarixini bilmay turib, oddiy musulmon fuqarosidan tortib to davlat arbobi, ruxoniy va ulamo, olimu fuzalolargacha ma'rifatli bo'la olishi aslo mumkin emas. Beh budiyning fikricha tarix davlatlarning gullab yashnashi va yo inqirozi sabablarini, kishilarning e'tiqodi darajasini, musulmonchilikka putur yetishi va islomga shak keltirib, uning asoslarini buzib ko'rsatish sabablarini tushuntirib beradi va barcha savollarga javob beradi. Mukammal, odil inson bo'lib yetishish uchun tarixni bilmoq darkor, har qanday bilim ham tarix ilmisiz to'la va mukammal emas, deydi Behbudiylar. «Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qimoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qimoq kerak. Dini islomning asli payg'ambar va sahobalarining islomiyat va ummat uchun jafo chekkan va mehnatlarini bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Past qolgan va yo taraqqiy qilgan

⁴³ I.A.Karimov.Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirpvard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-14

⁴⁴ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent. Sharq.5-tom,B-10

⁴⁵ I.A.Karimov.Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirpvard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-16

xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat, yo noloyiq bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak... Musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi va al'on na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Muni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Xulosa, dinu dunyodan boxabar bilmoqni hohlaydurgan har kim uchun tarix o'qimoq kerak. Chunki har nimarsa va shuning asli va nali tarixdan bilinur» - deydi u tilga olingan maqolasida. M.Behbudiy bu haqda mulohaza yuritib, islom tarixini o'rganishni, albatta, zarur deb biladi va bu zaruriyatni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu o'z-o'zidan ravshan. Ma'lumki, islom ta'limotini poklash va isloh qilish, ta'lim-tarbiya va hayotiy qadriyatlar muammolari jadidlar faoliyatining diqqat markazida turdi. Ular ta'lim, iqtisodiyot, madaniyatni umuman, jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish zarurligi islom ta'limoti negizida yaqqol belgilanganini isbotlashga va buni xalqqa tushuntirishga harakat qildilar. Behbudiyning fikr-mulohazalari shunchaki oddiy va havoyi fikr-mulohazalar emas edi.⁴⁶ Tarix va jo'g'rofiya inson uchun quyosh kabi zarurligini, tarixni yaxshi bilmoq uchun jo'g'rofiya va ayniqsa, tarixiy jo'g'rofiyani bilish zarurligiga o'quvchining diqqatini tortadi. Bu maqolasi bilan cheklanmay, jurnal muharriri o'z o'quvchilariga turli-tuman fanlar bo'yicha muntazam ravishda ma'lumotlar berib turishni va'da qiladi. Islom tarixiga esa Behbudiy «Muxtasari tarixi islom» -«Islomning qisqacha tarixi» deb nomlangan maxsus asar bag'ishladi.⁴⁷ Uning ta'kidlashicha, Qur'oni karim bilimdoni, sharxlovchisi va muxaddislar oldiga qadimdan ular egallashi kerak bo'lgan bir qancha shartlardan biri tarix fanini o'rganish edi.

Tarixni o'rganishga Behbudiy qanchalar katta ahamiyat berganini «Behbudiya» kutubxonasida mavjud va sotuvga chiqarilgan kitoblar ro'yxati aytib turibdi va bu yerdagi nashrlarning yetmish foizini tarixga oid asarlar tashkil qilardi. Bu kitoblar orasida uch tomlik «Tarixi madaniyat», «Tarixi islom», «Buyuk tarixi umumiy», «Tarixi istiqbol», «Turk tarixi», «Zafarnomai shoxiy», «Xulosai tarixi madaniyat», «Oynai tarixi usmoniy», «Madaniyati islomiya tarixi», «Temurlang», «Yigirmanchi asrda olami islom va Ovrupa», «Tarixi kashf ul-Amriko», «Tarixi Eron», «Tarixi Eroni buzurg», «Tarixi Baxtiyori» va boshqalar bor edi. «Oyna» jurnalining

⁴⁶ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T:1997, B-67

⁴⁷ B.Qosimov. Jadidchilik. Yoshlik. 1990, b-88

38-sonida imzosiz bosilgan dolzarb maqolada faqat Mahmudxo'ja Behbudiy ko'tarib olib chiqa oladigan masalalar o'rtaga tashlanadi. O'lka tarixiga oid xanuzgacha «tartibli, istifodali, mukammal bir asar yo'q. To'g'risi, shunday asar yozuvchi kishi turk o'g'lonlarin xanuz maydonga chiqqisi yo'q». Lekin, deydi muallif, tarix bo'yicha yozilgan kitob yo'q deb bo'lmaydi. «Turkiy, forsiy va arabiy tillarda necha kitoblar yozilgandurki, u kitoblardan rus va boshqa yevropaliklar istifoda etkan va etmaqdadurlar». Axolining ko'prok qissa, xikoyat, oshiqona g'azal kitoblarga moyilligini xisobga olgan noshirlar ko'proq moddiy manfaat topish maqsadida aynan shunday asarlarni chiqaradilar.⁴⁸ Tarixni unutganimiz oqibatida barcha gunohlar siz va bizning bo'ynimizga, yelkamizga tushadi, deydi u. Turkistonning yangi tarixini yozishning naqadar mashaqqatliligini tushungan Behbudiy, bunday asarni yozish Axmad Zaki Validiyning qo'lidangina keladi, deb xisoblardi.¹ Mahmudxo'ja Behbudiyning «Sart so'zi majxuldir» maqolasini biz nihoyatda muhim manba sifatida baholaymiz, ammo afsuski, juda kam tarixchi va etnograflargagina u ma'lum. Maqola – o'z zamonasi ilmiy izlanishlariga tayangan holda, aholi fikrini bilishdan tortib manbalarni ham o'rganib, mavzuga oid qator alabiyotlarni tadqiq qilish natijasida yaratilgan ilmiy asar. Nima sababdan M.Behbudiy bu mavzuga qo'l urdi? Ma'lumki, Turkistondagi rus aholi o'rtasida yuqori boshqaruv doiralarining sa'y-harakati oqibatida mahalliy aholini «sart» nomi bilan aytish keng tarqaldi. Hayotda esa «sart» ishlatilmas edi. Behbudiy shuning uchun ham bu «sart» atamasining qo'llanishiga qarshi edi. U xalqni bu nom bilan atash noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun jiddiy tadqiqotlar olib borish kerakligini tushungan.⁴⁹ Shuning uchun Behbudiy o'z xalqi tarixi va xotirasiga murojaat qildi. U «Tarjimon» gazetasi muharriri Ismoil Gasprinskiy o'zi tashkil etgan nashrlar, shuningdek, «Turkestanskiy kur'er» gazetalarida ushbu mavzuda chikishlarini qo'llab-quvvatlab, yuqorida zikr etilgan maqolani chiqaradi. Albatta, Turkistonda bu masala allakachonlardan buyon munozaraga sabab bo'lgan muammo edi. Behbudiy «Oyna» jurnalida bu haqda birinchi bo'lib Baxrombek Qorovulbegi so'zlaganini eslatib o'tadi. Axmad Zaki Validiy ishtirok etgan munozaralar «Oyna» saxifalarida

⁴⁸ I.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi-xalq e'tiqodiva buyuk kelajakka ishonchdir. T;O'zbekiston.2000,B-60

⁴⁹ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T:O'zbekiston.2008,B-78

yoritib kelindi. Jurnalning uchta sonida chiqqan kattagina maqolasi bilan Behbudiy bu muammo bo'yicha oxirgi xal qiluvchi nuqtani qo'yish uchun munozaraga olimlar, yoshlar, fikrlaydigan odamlarii tortdi. Behbudiy bir narsani: turkistonliklar o'zlarini kim deb ataydilar va ularga yaqin bo'lgan atrofdagilarchi, shuni aniqlab olaylik, deydi. Turkistonning g'arbida yashovchi turkmanlar turkistonliklarni «tojiklar» deb, Turkistonning janubida Balx, Badaxshon, Chaxorda yashovchi aholi turkiycha so'zlashadilar va turkistonliklarni «o'zbeklar» deb, Afg'oniston aholisi - tojik va o'zbek tillarida so'zlashuvchi xalq turkistonliklarni «o'zbeklar» va «turkiylar» deb atashadi. Yuqorida sanab o'tilgan xalqlardan birortasi «sart» so'zini bilmaydilar. Kavkaz, Eron, Hindiston xalqlariga ham «sart» so'zi noma'lum. Ular ham Turkiston aholisini o'zbeklar va tojiklar sifatida biladilar. Faqatgina qozoq va tatarlarning ma'lum bir qismi turkistonliklarni «sart» deb ataydi, ya'ni ular qozoq bo'lmagan xalqlarni sart deb biladilar. Behbudiyning: «na uchun «sart» dersan?» - degan savoliga ular - «bizning cho'lning sirtida o'tirgani uchun «sart» dermiz. Sirdaryoni bir zamonlar Yaksart deganlar. Daryoning naryog'ida o'tirganlarni biz «sart» deganmiz» - deb ularning tilidan yozib oladi Behbudiy.⁵⁰ Behbudiyning so'zlariga qaraganda, Turkistondagi 92 urug' va qabilalar orasida «sart» nomi bilan ataluvchi xalq yoki qabila-urug' bo'lmagan. Muallif Samarqand shahri va viloyatida tadqiqot ishlarini olib borib, quyidagi xulosaga keladi: «Samarqand viloyatida Totor, Mang'it, Mo'gul, Kanguli, Qozoq, Namin, Durman, Qirq, O'zbek, Saroy, Olchin, Baxrin, Yuz, Turk, Barlos ismlik qishloqlar ko'p. Xulosa turk-o'zbeklarning har bir qabilasiniig ismi taqilgan qishloqlar nihoyatda ko'pdur. Ammo majxul «sart». ismi berilgan bitta qishloq yo'q... Samarqand sinjokining sharqiy, janubiy va g'arbiy qismindagi xalqni aksari turkiy so'ylaydurlar va ular xalqini «tojik» ataydur. Xech vajx ila va bu birgina ulusun shahar xalqini «sart» demas Samarqandning g'arbida joylashgan tojiklarning 24 ta qabilasi istiqomat qiladigan CHashman volostida «Qayirmaqkozoq» degan kichkinagina qishloq bo'lib, shahar aholi u yerdagi qozoqlarning bir qismi «sart» deb ataydi.¹ Xullas, Behbudiy ulkan va keng qamrovli etnografik izlanishlarni amalga oshirdi va kim bilan suhbatlashmasin, savol-javoblar natijasi uni: «sart» atamasini faqat ruslar, qozoqlar hamda tatarlarnint ozchilik qisminigina

⁵⁰ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-54

qo'llar ekan, degan fikrga olib keldi. U yozadiki: «Rokimi xuruf 20 sanadan ziyoda bir muddat Samarqand atrofindagi qishloqtar xalqini marja'i bo'lgan dor ul-qazo va ba'zan vaz'i xiroj ishlarida mashxul bo'lub, har nav xalq ila so'ylashganmen". Xar vaqt tatar va qozoq urug'iga mansub kishilardan shahar xalini «sart» atalganini mushoxada etdi. "Bu ikki urug' ila ruslardan boshqa na Turkiston, Eron va na Kavkaz, na arab va na xindiy va na xitoylarning Turkiston xalqini va yo tojiklarni «sart» ataganini eshitmadim.» Behbudiy Turkistoning turli burchaklarida yoshi 60 yoshdan - 100 gacha bo'lgan keksa kishilar bilan suhbat o'tkazdi va ko'plab qabilalar – urug'lar nomini bilib olib, o'z maqolasida keltirdi, lekin keksa kishilarning birontasi «sart» so'zini bilmas, eshitmagan ham edi.⁵¹

Ma'lumki, «sart» atamasi chuqur tarixiy ildizga ega. Lekin bu yerda ran XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi voqea-xodisalar haqida ketayapti. «Sart» so'ziga o'zbek, tojik va boshqa xalqlarning o'zlari qanday qarardilar? Behbudiy bu savolga shunday javob beradi: «Matbuotda boxabar turkistoniy o'zbek va yo tojik yo arabga «sart!» deb xitob qilinsa, o'zlariga or xis etarlar. Adbatta, bir kishini ota-onasi bergan ismi bo'lib va oni mansub qabila va urug'i bo'lib turub, oni boshqa bir ism ila chaqirib va noma'lum va yo ma'lum qabila ismini taqilsa, oning xushlanmasiga... haqqi bo'lsa kerak». Afsuski, taniqli garixchi va adabiyotchilarga uning kqlgan murojaati xech qanday natija bermadi.⁵²

SHunga qaramasdan, Behbudiy zamonaviy adabiyotlarga murojaat qiladi va N.P.Ostroumovning «Sartlar. Etnografik ma'lumotlar» kitobini, Vamberining «O'rta Osiyo bo'ylab sayohati», Logofetning «Buxoro xonligi», Gayerning «Turkiston sayohatnomasi» asarlarini ukib, o'rganadi. «Oyna»ning 1914 yili, 25-sonida bularning tadqiqiga bag'ishlangan maqolaning davomi bosilib chiqadi. Behbudiy N.P.Ostroumovning kitobiga tanqidiy munosabat bildirib, uning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli tomonlari borligi va muallif tomonidan sartlar o'zi kim ekanligini aniqlab ko'rsata olmaganini ta'kidlaydi. Aslida N.P.Ostroumov Turkiston aholisining maishiy turmushini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan bo'lib, aholini sartlar deb atagan

⁵¹ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-56

⁵² I.Karimov. Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q. T;Muloqot.1994,B-13

eli. Behbudiy Gayerning fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Gayer o'zbek va tojiklarni «sart» deb atalishiga gumon ko'zi bilan qaragan edi. Vamberi va Logofet asarlarini o'qib, Behbudiy o'z fikrlarini haqligiga ishonch hosil qildi. U rasmiy manba va ma'lumotlarga, 1898 yilgi aholi ro'yxatiga ham murojaat etib, Rossiyaga qaram Turkistonda istiqomat qilayotgan xalqlarnipg nomlarini keltiradi.⁵³

Behbudiyning maqolasi bizlarga uning nafaqat publisist, adabiyotchi, ma'rifatparvar, balki yana ajoyib olim nazariy va amaliy xulosalar yasovchi, ilmiy usullarini qo'llab izlanishlarni olib boruvchi tadqiqatchi olim sifatida namoyon qildi. «Turkiston o'zbeklari», «Turkiston tojiklari», «Turkiston arablari», «Turkiston turkmanlari», «Turkiston yaxudiylari» atamalarini qo'llashga da'vat etib, u oddiy xalq uchun yot, begona, bema'ni bo'lgan nomlarga chek qo'yishni taklif qiladi. Keyinchalik «sart» atamasining odamlar tilidan tushib, unut bo'iib ketganligi M.Behbudiyning haqligini isbot qildi, uning fikrlari keng xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.⁵⁴ Bu bilan Behbudiyning fikri va bu masalaga uning munosabatidan boshqa ajralib turuvchi fikr-munosabatlar bo'lmagan, demoqchi emasmiz.⁵⁵ Masalan, «Salo'i Fargona» gazetasi 1914 yilgi 30-sonida «Sart suzi ma'lumdir» makolasini bosib chiqardi. Uning muallifi - Abdullobek afsonalarga asoslanib «sart» so'zi «masjidlik va madrasalik», «ozoda va malaniy» ma'nolarini beruvchi so'z ekanligi va bu nom bilan faxrlanish kerakligini isbot qilishga urinadi. Behbudiy «Oyna» saxifasida bunga javob tariqasida «Sart so'zi ma'lum bo'lmadi» maqolasi bilan chiqdi. Maqola imzosiz yozilganiga qaramay, ifoda usuli va darajasiga ko'ra, uning muallifi aynan M.Behbudiy ekanligi sezilyapti. Nima bo'lganda ham, quyidagi ajoyib fikr Behbudiyni boshqa biron kishiga tegishli bo'lmasa kerak: ilmiy jixatdan jiddiy isbot-dalillarsiz biron narsani ta'kidlash mumkin emas va «noma'lum bir rivoyat ila ulug' masala tarixini xalq etmoqlikni esa tarix haqida jinoyat sanaydurlar». Behbudiyning taraqqiyotda fanga beqiyos o'rin ajratib qaraganligiga u bilan Buxoro va Samarqandda bir necha marta uchrashgan Sadriddin Ayniy guvohlik beradi. S.Ayniy u bilan birinchi marta 1908 yili Samarqandda bir mehmondorchilikda

⁵³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T:1997, B-56

⁵⁴ Mustaqillik..Izohli ilmiy-omabop lug'at. T: Sharq.1998, B-34

⁵⁵ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q. T:Muloqot.1994, B-13

bo'lganini va Behbudiy u yerda hammaning e'tiborini tortib o'tirganini, hammaning diqqat markazida bo'lganini hikoya qiladi: «Bu kecha Mahmudxo'ja ko'pincha fanniy masalalardan so'z chiqarib, yerdan, ko'kdan, oydan, yulduzdan, qisqasi, ul vaktgacha biz eshitmagan narsalardan ko'pgina so'yladi»⁵⁶. Mahmudxo'ja Behbudiy bilan ikkinchi uchrashuvini eslab, o'shanda Ayniy Abdulqodir SHakuriy bilan uning uyiga tashrif buyurishganini, suhbat mavzusi Turkiston va Buxorodagi ilmiy va ijtimoiy masalalar bo'lganini ko'rsatib o'tadi.⁵⁶

Vaqt o'tishi bilan sodir bo'layotgan voqea-xolisalarni tadqiq etib tekshirgan Behbudiyning siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik asarlari ham tarixiy ahamiyatga molik bo'la bordi, Bu yerda Turkistonning milliy davlat qurilishi muammolari muhim urin egallaydi. Turkistonning siyosiy ahvoliga va tuzilishiga M.Behbudiy qanday munosabatda bo'lgan? U o'z xalqi taraqqiyotini nafaqat ma'rifatda, balki uning siyosiy maqomining keskin o'zgarishida, o'z mustaqilligini qo'lga kiritishda deb bildi. O'ziining ko'plab maqolalar va siyosiy-ijtimoiy faoliyatida u rus chorizmi va vaqtli hukumatning mustamlakachilik siyosatini fosh qiladi, mavjud tuzum qonunlarini tanqid ostiga oladi. Masalan, vaqtli hukumat tomonidan o'z moxiyati jixatidan demokratik ko'ringan bir qonun qabul qilindi. Bu qonunga binoan, qozi yoki volost 25 yoshga kirgan har qanday musulmon kishisi saylanishi mumkin edi. Biroq bu lavozimga saylanadigan odamdan, uning qobiliyati, ishchanlik maxoratini tasdiqlovchi biror bir xujjat talab qilinmas edi. Demak, xulosa qiladi M. Behbudiy, ma'lumoti yo'q, noxalol kishilar uchun bunday lavozimlarni pulga sotib olish imkoniyati paydo bo'ladi. «Mustabid va zolim hukumatning maqsad xukmronlarining bu qilgan jabrlari o'zlari uchun eng yaxshi, biz musulmonlar uchun eng jonsiz va harobligini berdi. Bu zakun bizga savodsiz qozilarni aqcha va rasvo ila saylamog'iga yordam etdi». Madrasa mudarrislarining soni qisqarib ketganligi shunga olib keldiki, eski ziyolilar o'rniga 2-3 mudarrisning o'rnini egallab ishlash sharti bilan bilimi past bo'lgan yoshlar ishga qabul qilinar edilar. SHunday qilib, bir «bilimsiz» kishi bir necha fanlardan saboq berardi. «Natijada ilmo ozaydi. Axloq buzildi, ilmo musulmoniyaga joxil va xoinlar sirf savodsiz kishilar qozi bo'ldi. Tadrir va aftodai ojiz kishilar mufti, mudarris bo'ldi. Bir mulla ham hozi va ham

⁵⁶ T.Qozoqov. Ma'rifat jonkuyari.Fidokor 2001,B-34

mudarris va ham oqsoqol bo'lib, talaba, maorifchi va aholi ishlarini saqtaga uchratdi. Boshka tarafga qarasak, qozi va mudarrislik uchun iste'dod bo'lgan ulamomiz och yuradur. Ox, zolim hukumat va missionerlar bizga na'lar qildilar». Lekin mustaqillik va ozodlik kurashish qo'lga kiritilmaydi. Behbudiyning imoni komilki, «Xaq olinur, berilmas!» U maqolasiga shunday sarlavxa qo'yadi, «Bayoni haqiqat» maqolasida ham yuqoridagi so'zlarni ta'kidlaydi. Tarixan yaxshi ma'lumki, deb yozadi Behbudi: «Xaq olinur, berilmaydur. Xar millat va mamlakat xalqi o'ziniig xuquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, xech bir kishi bizning din va millatimizga zulm taxlid qilmasun va bizni ham boshqalarga taxdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q».⁵⁷

Behbudi «Xurriyat berilmas, olinur» nomli maqola muallifi Munavvarqorining fikriga qisman qo'shildi. Lekin Munavvarqori ozodlikni «Fakat qon ilagina olib bo'lur»-deb xisoblardi. Behbudi esa ko'pchilik jadidlar singari, mustamlakachilikka qarshi qonsiz kurash tarafdori har qanday inqilobga qarshi edi. U doimo diqqat bilan Duma ishini kuzatar, parlament kurashi orqali ko'p narsaga erishsa bo'ladi, deb xisoblardi. U Muxtoriyatning ashaddiy tarafdori bo'lishiga qaramay, taraqqiyotga eriishshning tadrijiy asta-sekinlik bilan amalga oshuvi usullarini yoqlab chiqqan edi. Xatto, Rossiya tarkibida turib ham Turkiston o'z mustaqilligiga erishishi mumkin, deb xisoblardi. Fevral inqilobidan so'ng Rossiya federativ tuzilmasini va unda Turkistonning o'rni qay darajadaligipi Behbudi qanday tasavvur qilgan? U yozadiki: «Besh viloyatdap iborat... Turkistonning har bir shahar va uezdidan bir necha nafardan kishi saylanib, Toshkentda katga markaz va majlisimiz bulurki, barcha olur-solik va minba'd bulaturgan qonun va nizomqlarni alar tuzib, Turkistonda joriy qiladurlar. Rusiya hukumati ila musulmonlar orasinda shul majlis vosita bulur. Turkistoi uchun va har viloyat saylangan voliy va ma'murlarni alar musgaxkam kiladurlar. Turkistonning nataraqqiy va inkishofiga alar harakat kiladurlar. Albatta, mazkur vakil va mab'uslarimiziing kuprok musulmonlardan va ozrogi ruslardan bulub, ishlar xukm ila va zur ila bulmay, balki mashrub rizolik ila bulur».⁵

⁵⁷ Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. T:1997, B-72

Birok, bunday xukukka ega bulish uchun, millatidan kat'iy nazar, hamma ijtimoiy katamlar kurashda ishtirok etishi kerak va rus aholiey bilan birlashib, «Turkistoi musulmonlari shurosi»ni tuzish kerak va bu muroga har bir uezddan vakil saylanishi kerak, deb ta'kidlaydi muallif.⁵⁸

Ozodlik va mustakillikka erinish yulidagi dastlabki shart-sharoitlar shulardai iborat bulishi kerak edi. Bexbudiy fikricha, demokratik Rossiya davlati doirasida Turkistonning muxtoriyat makomi ostida yashashi uchun yana bir asosiy shart - bu ichki mojarо va zildiyatlarga barham berish edi. «Bayoni xakikat» makolasida bu xakda u: «Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat (federatsiya) usuli yuzasidan tiriklik kilsunlar. Rusiya musulmoilarining har bir sho''basi muhiti jugrofiya va mamlakatlarini xudud tabiyasi (chegarasi) buyicha ayrim bulaklarga bulinib, uz taraflaridan uz xurriyat va odatlariga muvofik... idora kilinib va butun Rusiya musulmonlari uchun Rusiya poytaxtida bir «Musulmon markaziy idora» vujulga keltirilib, siyosiy va iktisodiy va mamlakat ishlariga ruslar ila kulma-kul uishab, duiyo va taraqqiy maydonga harakat va birga javlon etilsui Muxtoriyatli maishatni (turmushni - D.A., D.R.) vujudga keltirmok uchun... al-xusus, biz - Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo, kadim va jadid nizo lafzisini kuyib, uzaro ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yaxudiy va boshkalar kushilgan holda uz boshlariga Rusiyaning bir parchasi xisoblana turgan Turkiston xukumini (hukumatini) ta'sis etsak, uzimiz majlis mashvaratimiz (parlamentimiz D.A., D.R.) bo'lsin, desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, uz zakup va dinlariga muvofik tiriyushk kilsinlar. Turkiston yaxudiy, pasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e'tiborga olaturgon kolgunlar tuzulsin. Agarda biz Turkiston musulmonlari hohlasakki, din va millatimizni... ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo'ysalar... ziyoli va garakkiyparvarlarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, vatan rivoji ugun xizmat etsak... Uzimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bulinsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, kiyofat va shaklini, libos va tarzi maishatini uzimiz tayin kilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdur... Xozirgi

⁵⁸ I.Karimov.Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-45

axvoliga Karaganda yana biz musulmonlar ruslarning fukarosi va raiyasi bulgan ulkadek, alarlan dast va rijoga kolumiz. Koloniya (mustamlakot) koidasi ila bizni idora etarlarki, bunga uz ixtilofimiz sabab bulur».⁵⁹ Milliy-ozodlik harakatidagi ziddiyatlar mustamlakachilik tizimiga yana olib kelishini Behbudiy yaxshi tushunar edi. Agar «butun Turkiston xalki ittifok etsa, kon tukidmas. Yer va amlok ham taksim bulmay kolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmok uchun ittifok etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtlikga duchor buyaurmiz. Butun Turkiston ittifok etsa, 15 millionlik bir kuvvat imloga kelurki, munga yer titraidur!».⁵⁹ Bu suzlarni Behbudiy «Turkiston muxtoriyati» ziyun kilingavdan sung ayggan. Ammo Behbudiyning yaqin safdrshi va Ukuvchisi bulgan Xoji Muinnint guvoxlik berishicha, Behbudiy yoshligida inki-lobiy goyalar ta'sirida bulib, ayniksa 1905 yilgi rus inkilobi unta kuchli ta'sir kilgan. Lekin u ko'p utmay mustaqillikka erishishning tinch yul bilan amalga oishrish zarurligi xakidagi fikrga kela boshladi.⁶⁰ SHarkshunos Laziz Azizzoda M.Behbudiy ulimining yetti yilligi kuniga bagishlab yozgan makolasida: «Behbudiy eng avval Turkistonni chor hukumati kulidan kutkazish goyasini elga talkin kiluvchilardan, aholining ezilganligini birinchi sezganlardan va bu xakda turli usta yullar ila istikbol kurashiga chakirganlardandir... U har vakg uz makolalarida chor hukumatini tankid kilar, ba'zan ochik, ba'zan yashirin tashvikotlar kilar va ayni zamonda Buxoro amirligiga ham xujum kilar edi» - deb ta'kidlaydi.⁶¹

Mustakillikka erishish yulidagi eng muxim kadamlardan biri, M.Behbudiyning fikricha, yoshlar va keksa avlod vakillarining birlashuvi darkor. Yosh avlod uzidagi shoshkaloklik illatidan kutulib, masalalarni xal kilishda ilmiy asoslarga suyanib ish kuriish va mustahkam iroda namoyon etishi kerak. Afsuski, tan oladi Behbudiy, uzim tez va shoshilinch chora-tadbirlar kurish garafdori edim, lekin hammasi reja asosida amalga oshirilishi va keksa avlod yoshlarni millat ravnaki yulida mehnat kilib kurashish imkoniyatlaridan maxrum kilmasligi kerak.³

⁵⁹I.Karimov.Ozod va ob od vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-89

⁶⁰ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-23

⁶¹ I.Karimov.Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q.T:Muloqot.1994,B-13

1917 yil baxori Turkiston ulkasi musulmon axli siyosiy jixatdan uygondi, bu masalada burilish xolati yasaldiki! kuchayayotgan demokratik jarayonlarga bosh-kosh bulish istagini baen etgan yangi kuchlar siyosiy saxnaga chikdilar. Yangii tugilayotgan milliy demokratik kuchlarning yadrosi, ya'ni markazi sifatida uz faoliyatida raxbarlik mavkeiga tayyorgarlik kurib kelgan jadidlar maydonga chikdilar.⁶²

Maxalliy xalklarning mustakillik va taraqqiyot yulida uz goyalarini ulkada shonli va zafarli demokratik inkilob bilan boglagan jadidlar hayotga uzlari e'lon kilgan prin-tsiplarni tatbik kilish buyicha faol harakat boshladilar, Tobora kengayib borayotgan demokratik jarayonlarda mahalliy aholi siyosiy manfaatlarining ustuvor ximoya etish masalasi - jadidlarning 1917 yil fevral' vokealaridan sung siyosiy saxnadagi faoliyatining asosiy yunalishiga aylandi. Turkistonda bu goyalarining boshida Mahmudxo'ja Behbudiy! turar edi va u ham barcha jadidlar kabi Rossiyada galaba! kozongan Fevral' demokratik inkilobini kutarinki rux va kuvonch bilan kugib oldi. Bu inkilob Turkistonda jadidlar uchun mustakillik buyicha uz dasturlarining amalga oshishida katta imkoniyatlar berishini Behbudiy yaxshi tushunar edi.⁶³ Turkiston mahalliy xalklarning siyosiy, milliy va iktisodiy manfaatlarini ximoya etish jadidlar va xususan, Behbudiy faoliyatida ustuvor yunalish sifatida 1917 yil baxori va yozidan to Kukon muxtoriyati tor-mor bulib tugatilgunga kadar xukmronlik kilib keldi. Zaki Validiy Tugon uz xotiralarida Rossiya federativ davlat tuzilmasini ximoya kilib, yoklash buyicha Behbudiy faoliyatini aloxida ko'rsatib o'tadi. «Kurash shu darajada shafqatsiz va beayov bo'la bordiki, xatto, do'stlarni ham agar ular bizga qarshi bo'lsalar, ayab o'tirilmas edi. Kadetlar firqasi yo'l boshchilaridan biri, Toshkent munitsipalitetining sobiq vakili prof. Maletskiyga (N.G.Mallitskiy ko'zda tutilgan –D.A., R.D.) qarshi ayovsiz kurash olib borishga to'g'ri keldi. Meni Samarqand muftisi - adabiyotchi Mahmudxo'ja Behbudiy va eserlar, asosan Vadim CHaykin va sharqshunos Lev Ziminlar qo'llab-quvvatlashdi. Ko'plab O'rta Osiyolik ziyolilarga kadetlarning partiyasi yaqin kelar edi, ammo qozoq, o'zbek va turkman qishloqlaridan yetilib kelayotgan vakillar bu kadetlar partiyasiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lar edilar. Ular bilan Mahmudxo'janing ochiqdan-ochiq

⁶² I.Karimov.Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q.T:Muloqot.1994,B-14

⁶³ I.Karimov.Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q.T:Muloqot.1994,B-43

muloqotlari uzoq va chekka joylardan kelgan musulmon vakillarini qilayotgan ishimizning haqdigiga ishontira bildi, ularni federatsiya tarafdorlariga aylantirdi». SHuni aytish kerakki, Rossiya federativ qurilmasiga qarshi turganlar agar Rossiya federativ respublika maqomini qabul qilsa, unda musulmonlar bundan yutqizishadi, chunki ular muxtoriyat asosida o'z-o'zini boshqarishga xali tayyor emaslar va natijada taraqqiyotga g'ov bo'luvchi, xalal beruvchi mutaassib (konservativ) ruxoniylarga tobe bo'lib, ular ta'siriga tushib qoladilar, deb xavfsirardilar. Bunday fikrlar ta'siriga mahalliy aholidan saylangan vakillarning ma'lum bir qismi ham berilgan edi. SHuning uchun Behbudiyga tushuntirish ishlarini kengroq olib borishga to'g'ri keldi.⁶⁴ Mahmudxo'ja Turkiston parlamentida faqat rus tilidagina gapirishga katta xato bo'lur edi, deb xisoblardi, turkiy va rus tillari teng xuquqqa ega bo'lishi kerak va bu narsa ertami-kechmi amalga oshadi, deb ishonardi. 1917 yil 9-16 apreli kunlarida bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi Ijroiya Qo'mitalari qurultoyida so'zga chiqqan Behbudiy, Axmad Zaki Validiy bilan hamkorlikda mahalliy xalqning saylanadigan organlarga teng xuquqli asoslarda qatnashuvini yoqladi. U kadetlar firqasining shovinistik siyosati va N.G. Mallitskiyning pozitsiyasiga qarshi chiqib, shaharning ikkala qismi yevropalik va mahalliy qismi uchun yagona shahar o'z-o'zini boshqaruvini tashkil etish zarurligi haqida gapirdi.⁶⁵ «Musulmonlar taraqqiyotda orqada qolishgan va ular mutaassibdir deyish – noto'g'ri», - dedi u, - «biz bir-birimizni, umuman olganda kam bilamiz, birgalikda oz muddat yashadik, lekin endilikda bizni ozodlik birlashtiradi. Va shu jipslashuv va yakdillik musulmonlar manfaatiga xizmat qiladi, zero ular katta og'alari - ruslardan o'rganishni istaydilar. Biz birlashgan Rossiyaning farzandlarimiz va birgalikda borishimiz lozimki, oldingi qistovga olishlar, siqishlar unutilishi va ortda qolishi kerak. Shahar o'z-o'zini boshqaruvining bo'linishi ruslar uchun manfaatli emas: ko'pgina shaharlarda rus qismlari o'zlarining ehtiyojlarini qondirishga qodir emaslar. Ruslar yosh musulmonlar bilan birgalikda ishlashlari kerak. Musulmonlarning o'zlari ozodlik va madaniyat yo'lida o'z o'rinlarini ruslarga bo'shatib beradilar». Notiq kompromisga - kelishishga ham tayyor vg ruslarga mutanosib (proporponal) miqdorda o'rin berish

⁶⁴I.Karimov.Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-89

⁶⁵ Unutilmas siymolar.T:Akademiya.1998,B-10

o'rniga barcha p'rinlarning uchdan bir qismini berishga tayyor edi. «Ruslar siquvdan xavotir olmasalar ham bo'ladi, musulmonlar orasida Buxoroda - 1200 yildan buyon boyib va rivojlanib yaxudiylar yashab kelmoqdalar. Madaniyat va qo'shinlarga ega bo'lgan yevropaliklar esa biron narsadan xavotirga tushmasalar ham bo'ladi, ammo musulmonlar xuquqining qisqarib kamayishi demokratik tamoyillarga zid kelgan bo'lur edi», - deydi Behbudiy. Bu material ko'p narsalar haqida o'y-fikrlarga olib keladi, chunonchi, birinchidan «Turkestanskije vedomosti»da Behbudiyning chiqishi boshqacha bir tarzda berilgan. Yuqorida keltirganimizdek, uning ikki iborasi Turkiston o'lkasi ijroiya qo'mitalari qurultoyi bayonnomasidan joy olmagan. Gazetada yozilishicha, Behbudiy, o'shanda musulmonlar kelishuvga tayyor va ruslarga uchdan bir emas, balki barcha o'rinlarni berishi haqida gapirgan, deyiladi ³ Bunday bo'lishi mumkin emas edi. Mallitskiy xavotirlanib, o'rinlarni mutanosib tarzda bo'lish prinsipi ruslarga umuman bironta ham joy qoldirmasligiga ko'zi yetdi, chunki ruslar mahalliy aholi bilan solishtirganda, ozchilikni tashkil etardilar. SHundan kelib chiqib, Behbudiy kompromiss - kelishuv so'zi ostida ruslarga ko'proq o'rinlar, ya'ni ularga uchdan bir kismi berilishini ko'zda tutgan edi. Behbudiyning bu chiqishidagi ayrim so'zlar gazetada: «Bo'linishga urinish bo'lishi mumkin emas, zero musulmonlarning o'zlari xuquqlarini tenglashtirishga harakat qiladilar» -deb o'zgartirib berilgan. Xolbuki, qurultoy bayonnomasida bu so'zlar kuchliroq oxangda aytilgan edi: «Agar bunga ruslar ko'nmasalar, unda umumiy masalalar bo'yicha kelishuv qomunga to'g'ri keladi»⁶⁶

Demak, Turkiston muxtoriyati tashkil bo'lgunga qadar, Behbudiy, agar muvaffaqiyatsizlikka uchrasa va Turkistonda siyosiy kuchlar noo'rin joylashsa, u holda o'z milliy davlat tuzilmasini tashkil qilish imkoniyati paydo bo'lishini ko'zda tutadi. Behbudiy va Axmad Zaki Validiy davlatni boshqarish ishi ma'lumoti yo'q (bu yerda mahalliy xalqlar vakillari ko'zda tutilyapti - DA, R.D.) kishilar qo'liga tushib qolishdan xavotirlangan kadetlarni tanqid ostiga olib, ular Hindiston mustamlaka boshqaruvi tajribasiga tez-tez murojaat qilishga o'rganganliklariga ishora qilib: «Hindistonga mustamlaka boshqaruviga oid qalin kitoblarni tarjima qildingizlarki, o'shanday boshqaruv tizimidan bu yerda foydalanish uchun, undan ko'ra, xukmron va

⁶⁶ A.Shamsitdinov.Jadidchilik-haqiqat va uydirma.T:Muloqot.1991,B-20

tobe millatlarning qanday qilib bir xil saylov xuquqiga ega bo'lishlari va tenglik sharoitida yashashlari mumkinligi haqida kitoblar tarjima qilib chiqarilsa, ayni muddao bo'lur edi va bunday kitoblarni ham rus ham turkiy tillarda nashr etish darkor», - deb aytdilar. Behbudiyning bu nutqida bir qiziq ajablanarli jixati bor, u ham bo'lsa, «katta og'a» iborasining qo'llanishi. CHunonchi, «katta og'a» iborasi «katta og'a» yurgizayotgan mustamlakachilik siyosatini (g'azabkorona qoralab) tanqid qilayotgan Behbudiy tilidan chiqishi qiziq hol edi. Lekin bu yerda xolis bo'lishimiz kerak. Behbudiy rus madaniyati oldida tiz cho'kar edi. Usha yillari Turkistonga nisbatan, Rossiyada fan, san'at va adabiyot sohalari taraqqiy etib borayotgan edi. Siolkovski, Dokuchaev, Vernadskiy va Mendeleev, Pirogov, Mikluxo-Maklay, Tolstoy, Dostoevskiy, CHaykovskiy, Raxmaninov va ko'plab ulkan olim, adib, musiqachilar, teatr va muzeylarning rivojlanib borishi va xokazolarning barchasi Behbudiyni xayratga solmasligi mumkin emas edi va shu asosda yuqoridagi «katta og'a» iborani qo'llagandir ham. Behbudiy jadidlar orasida katta obro'ga ega edi. Uning ishontira bilish xislati safdoshlariga gumon-shubxa va qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berar edi. Behbudiy, Validiyning guvohlik berishicha, jadidchilikning milliy harakatga aylanishiga ishonar edi. Xattoki. Munavvarqori, ba'zan gumonlari ustun kelgan vaqtlarida ham, Zaki Validiy guvohligida, Mahmudxo'ja Behbudiy so'zlariga quloq tutar edi. Uning o'rinli tanqidi sharofati bilan qurultoyda shahar o'z-o'zini boshqaruvining ikki shakliga saylovlar o'tkazish haqidagi xavfli fikr-taklif inkor etildi, ya'ni Turkistonda ruslar uchun alohida, mahalliy uchun alohida boshqaruv tizimi inkor qilinib, hamma uchun yagona o'z-o'zi boshqaruv tizimi taklif etildi. Behbudiy faoliyatida milliy manfaatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, uning o'zi milliy harakat g'oyasi tarafdori va barcha siyosiy kuchlarning birlashuvi tarafdori edi. SHu bilan birga, Axmad Zaki Validiyning guvohlik berishicha, Behbudiy bolsheviklarga yot ko'z bilan qarab kelgan va ularga nisbatan yomon munosabatda bo'lgan. Zero: «Munavvarqori, Behbudiy va Buxoro jadidlari kadetlarga qarshi qanday chiqishgan bo'lsa, sotsializmga ham shunday qarshi bo'lganlar», - degan so'zlar yuqoridagi fikrni to'la qo'llab-quvvatlaydi⁶⁷. CHunonchi, Behbudiy o'sha paytda mavjud bo'lgan barcha firqalarni juda yaxshi bilar edi. 1906 yili u

⁶⁷A.Shamsitdinov.Jadidchilik-haqiqat va uydirma.T:Muloqot.1991,B-76

o'zining maxsus maqolasiga to'rtta firqaga, jumladan, bolsheviklar firqasiga ham baho berib o'tgan edi. Maqola nomi arab maqoli «Xayr ul-umuri avsatuxo» dan olinib, «Hamma narsaning o'rta miyonasi durust», degan ma'noni berar edi. Birinchi partiyaning u «buyrukratiya-mustabid», ya'ni eski monarxiya tuzumi tarafdorlaridan iborat partiya deb ataydi. Agar bu tuzum, Behbudiyning fikricha, Turkistonning erkin taraqqiyoti uchun, umuman, nomaqbul bo'lsa, unda «ishtirokiy avomiya maishat mushtaraka firqasi» - sotsial-demokratik partiyasi dasturini nafaqat nomaqbul, balki o'ta zararli deb xisoblaydi: «U holda bu partiyaning murodi mumkin loyik'i yoinki xayoliydek kurutgub, bu toifaga qo'shilmoq bu musulmonlar uchun nihoyatda zararlidir. Pragrammalarni moliya moddalarini bir oz tagyir bermaguncha shariatga muvofiq bo'lmagani kabi joni va oila bobidagi fikrlari ham aslo to'g'ri kelmaydur». Behbudiyning bu munosabati sovet tadqiqotchilari tomonidan uning sotsializm g'oyalarini tushunib yetmasligi, marksizmi bilmasligi, xatosi sifatida baholanib keldi.⁶⁸ Biroq «Xayr ul-umuri avsatuxo» maqolasini aslyatida o'qib, Behbudiyning o'z pozitsiyasi soxibi bo'lib turib, sotsial-demokratik firqa va uning dasturiga salbiy baho berganligiga bizda shubxa qolmadi. Kadetlar partiyasini «kadet avomiya maishat mashruta» firqasini xush ko'rgan Behbudiyni sal keyinroq - aprel oyida Turkiston o'lkasi Ijroiya Qo'mitasi noiblari qurultoyida bu partiya a'zolari bilan to'qnash kelib, ba'zi xatti-harakatlaridan norizo bo'lib, ko'ngli qolgan va kadetlarning pozitsiyasini qattik tanqid qilgan edi. M.Behbudiyni to'rtinchi partiyaning -«rusiya musulmonlari ittifoqi»ni ta'riflar ekan, uning siyosiy dasturi kadetlarning o'xshashligini ta'kidlagan. SHu bilan birga, bu partiya musulmonlarning diniy, iqtisodiy, mafkuraviy jihatlaridan birlashtirar edi. Behbudiyni, bu harakatda Turkiston, Buxoro, Xivaning bir viloyatidan musulmon vakillaridan kam deganda 30 ta odam qatnashishi va Turkiston ravnaqi yo'lida xizmat qiluvchi qo'mita tuzilishi lozim, deb xisoblardi. SHunday qilib, u Turkiston uchun eng maqbul partiyaning tanlar ekan, o'z nuqtai nazarini muvozanatli ob'ektiv deb baholaydi. O'zining yengil va jonli tilda yozilgan feletoni bilan o'quvchilarga to'rt partiya har birining maqsadi va vazifalarini tushuntirishga harakat qiladi. Biroq Behbudiyni asarini feleton xisoblagan bo'lsa ham, biz

⁶⁸ Unitilmas siymolar.T:Akademiya.1998,B-54

uni taxliliiy maqola sifatida baxolaymiz, chunki bu yerda ma'rifatparvarning munosabatlari, tushunchalari va xulosalari mavjud.⁶⁹

«Oyna» jurnali Behbudiy qaynoq faoliyatini ko'rsatadigan va g'oyalarini ilgari surgan yorqin yodgorlik xisoblanadi. Jurnalning birinchi soni 1913 yil 20 avgustda, oxirgi 68-soni esa 1915 yil 15 iyunda chiqdi. Umuman olganda jami 1720 saxifadan iborat.³ Jurnal har hafta chiqar, jurnalning soni 24 saxifagag tashkil etardi. 47-sondan jurnal saxifalaridan fotoillyustratsiyalar ham joy ola boshladi. Bu fotoillyustratsiyalar ko'pincha Samarqandning arxitektura yodgorligi va M.Behbudiy sayohati paytida to'xtab o'tgan joylari haqida xikoya qilar hamda Ismoil Gasprinskiyning bir necha surati ham bosilib chiqqan edi. Jurnalning tashqi ko'rinishi ham o'zgacha bo'lib, qulay bichim va o'qish uchun arab yozuvining bejirim, chiroyli shriftiga ham ega edi. Jurnalning ko'rkam muqovasi va oxirgi saxifalari rus tilidagi reklama va ba'zi bir ma'lumotlar uchun mo'ljallangan edi. Jurnal nomi muqovada to'rt tilda: o'zbek, tojik, arab va rus tillarida - «Oyna»-«Ko'zgu»-«Mir'ot»-«Zerkalo» nomi ostida chiqqan.⁷⁰

Xo'sh, «Oyna» nimani anglatadi? Mahmudxo'ja Behbudiy javob beradi: «Oyna... Unda odam nazar tashlasa o'zini ko'radi va qiyofasining qandayligidan ogox bo'ladi. qizil, sarik, qora yo oq bulsa, bu omillar ta'sirida uning moddiy va ma'naviy xolatining hosili bo'lgan... kishi ilojini qidira boshlaydi... Odamzotning oynasi odamdir... Boz ustiga, odamzotning oynasi boshqa odamdir. Dustlar bir-birining oynasi va faqat odamzotga oyna yasash va yaratish maxorati berilgandir».¹ «Oyna» jurnaliga bag'ishlangan va unda bosib chiqirilgan Qo'qonlik Mahmudxoji Rizozodaning she'rlarida insonlar uchun jurnalning ahamiyati quyidagicha tavsiflanadi:

«Ey oynai jaxonnamosen,
Raxsizlarga turfa raxnamosen.
Xar ilmu funundan aylabon baxs
Ko'ngullara mabxasi ziyosen
Ravshan ila ko'zga tutsa olam
Omillara ya'ni to'tiyosen.

⁶⁹ B.Qosimov.Jadidchilik.Yoshlik.1990,B-84

⁷⁰ N.Avazov.Behbudiy- ma'rifatparvar.T:Sharq.1993,B-3

Mir'oti Sikandar ul-luzumsen,
Arbobi kamola muddaosan».²

«Oyna»ni nashr qilishda Behbudiyl o'z ustozlari tajribasiga suyandi. Ma'lumki, Gasprinskiy ham «Tarjimon» gazetasini nashr qilishga qadar «Mir'oti jadid», ya'ni «Yangi Oyna» nomi ostida varaqalar chiqarib yurgan edi, qori Abdurashid Ibroximov esa 1902-1909 yillari Ozarbayjonda «Mirat-Ko'zgu» nomli islohiy-diniy mazmun kasb etuvchi qalin jurnal chiqargan, 1910 yili shu nom bilan badiiy jurnal chiqar edi. «Oyna»ning to'rt tilda nomlanishi chet tillarini bilish va egallash zarurligini doimo ta'kidlab kelgan Behbudiyning til bo'yicha qarashlari dalilidir. U chet tillarini bilish, ta'lim olish, fan va madaniyat rivoji va butun taraqqiyot uchun muximligini qayta-qayta ta'kidlard. Binobarin, jurnalning dastlabki sonidayoq, «Ikki emas, turt til lozim» nomli maqolasi bosilgani tasodifiy emas.⁷¹

Hindistonda ta'lim olgan turkistonlik talabalarning maktubi bu yerda juda o'rinli bo'lib, ular «Vaqt» nashrining muharriri Fotix Karim va «Oyna» jurnalining muharriri Mahmudxo'ja Behbudiylga yuborilgan gazeta va jurnallar uchun minnatdorchilik bildiradi: «Turkiy tilini o'zlashtirmagan Buxoro va uning yon atroflaridan kelgan talabalar uz Vatanlaridan fors tilidagi ma'lumotlarga ehtiyojlari katta». Biroq jurnalning 49-sonidayoq tahririyat o'z o'quvchilariga moliyaviy qiyinchiliklar tufayli va obunachilar sonining qisqarishi munosabati bilan o'z faoliyatini to'xtatishni bildirgan edi. G.Andreev bilan qilgan suhbatida Behbudiyl buni tan olib: «O'tgan yili 300 ta obunachi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi yil borgada esa obunachilarning soni 200 taga tushib qoldi. Ulardan 100 dan ortig'i Farg'onaga to'g'ri kelsa, bizning Samarqand viloyatiga taxminan deyarli 50 tasi to'g'ri keladi. Shunday qilib, dastlabki davrlarda men ziyon ko'rishimga to'g'ri keldi», - degan edi.⁷²

Jurnalga zarur bulgan xodimlarning topilmaganligi, mablag'larni tejash bilan boshqa sabablarga ko'ra, jurnalni nashr qilishh toboraq qiyinlashgan edi. «Amalda faqat mening o'zim jurnalda ishlayapman» - deb shikoyatomuz gapirgan edi Behbudiyl. Bundan tashqari, balki haddan ziyod toliqqanligi va sog'ligiga putur yetganligi sababli ham u

⁷¹ A.Shamsitdinov.Jadidchilik-haqiqat va uydirma.T:Muloqot.1991. B. 34

⁷² I.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T:O'zbekiston.1997. B. 56

jurnal chiqarishdan voz kechishga majbur bo'lgandir. Tabiiyki, bu ulkan aqliy mehnat natijasida asabiy toliqqanligidan kelib chiqqan bo'lishi kerak. U bilan suhbatlagan G.Andreev ham uning yuz-ko'zlari, xasta nigoxlariga e'tibor bergan edi. Behbudini jurnalni yopishga majbur qilgan sabablardan yana biri senzuraning haddan ziyod e'tirozi va muallif so'zlari bilan aytganda, «harbiy sensor»ning jurnal ishlariga doimiy aralashuvi edi. Jurnalning so'nggi sonlaridan birida Behbudiy tahririyati bergan e'lonida jurnalning kechikib nashr etilishi senzura tufayli ekanligini tushuntirgan edi.⁷³ Qisqagina muddat nashr etilgan bo'lsada, «Oyna» ko'p maqsadlariga erishib ulgurdi.⁷⁴ Behbudiy ilg'or g'oyalarini jamiyat orasida yoyishga erishdi. Agar u o'z faoliyatining ilk davrida yakka bo'lgan bo'lsa, 1913 yilga kelib, Samarqand, Buxoro, Quqon, Farg'ona Toshkent va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlari yangi jadid o'qituvchilari, o'quvchi-talabalarning ota-onalari, ilg'or kishilar, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Arab mamlakatlari ziyolilari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishdi, unga kitoblar, nashrlar bilan yordam berildi. Bu 39 yoshli Behbudiy uchun kuchli manba bo'ldiki. katta sa'y-harakatlar bilan jurnalni chiqara oldi. «Oyna» mundarijalarini o'rganar ekanmiz, PAndreevning Behbudiy jurnalni yumoristik harakterda, yengil satira ruxila chiqargani haqidagi so'zlarini qayta taxlil qilib ko'rdik. Lekin yumoristik emas, balki satirik va publisistik ruxda yozilgan ko'plab maqolalar ham muhim muammolar ko'tarilganining shoxidi bo'ldik. SHu bilan birga, G.Andreevning xotirlashicha, Behbudiyning quyidagi so'zlari ko'p narsani, xususan, uning taktikasini oydinlashtiradi: «Jurnaldagi qarashlar moxiyati o'z faoliyatini to'xtatgan «Samarqand» gazetasi qarashlarining moxiyati bilan deyarli bir xil. Lekin yorug'likka chiqishning o'zga bir yo'lini tanladim. Fosh etish yo'lidan, satira va yumor yo'lga o'tdim. Zero, yengil zaharxandali kulgi bilan ko'p narsaga erishsa bo'ladi». Jurnalning mashxur va ma'lum bo'lganligini bu yerga junaldagi xat va telegrammalar isbotlab turibdi. Xatlarda hayotniig barcha og'ir-yengil, past-baland tomonlari haqida so'z yuritishar edi. Masalan, 1914 yil 14 aprelida chiqqan «Oyna»ning 51-sonida Qozondagi rossiyalik musulmonlar, Buxoro fuqarolari, Hindiston universitetida taxsil olayotgan talabalarning xatlari e'lon

⁷³ N.Avazov.Behbudiy- ma'rifatparvar.T:Sharq.1993,B-5

⁷⁴I.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T:O'zbekiston.1997,B-22

etilgan. Bu xol jurnalning juda keng tarqalganini va ma'lumligini yana bir bor tasdiqlaydi. Taxririya kelib tushgan xatlarda jurnal nashrini yana davom ettirish zarurligi izhor etilgan edi. Demak, u zamondoshlarining ma'naviy hayotida katta o'rin egaldab turar edi. Jurnal mavzusi rangbarang: iqtisodiyot, siyosat, fan, madaniyat masalalariga keng o'rin berilgan. Birinchi sonining dastlabki maqolasi «Turkiston» deb atalib, u Behbudiy qalamiga mansub edi. Xozirgi zamon tarixshunos va tilshunoslari uchun muallifning Osiyoi Vusto (O'rta Osiyo) va Turon Zaminning qadim jo'g'ofiy chegaralari bo'yicha mulohaza va tushunchalar qiziqish uyg'otishi turgan gap. Maqolada Turkistonni ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi tavsiflanib, viloyatlar, uezdlar nomlari berilib, 1902 yilgi aholi ro'yxati ma'lu motlari ham keltirilgan. Jurnalda chop etilgan maqolalar mavzusi va ruxi buyicha ilmiy-ommabop «Jug'rofiya chist?» «Ulug'hbek rasadxonasi», «Yer», «Quyosh», «Tarix va jo'g'rofiya» maqolalari va adabiy chiqishlarga bo'lingan. Adabiy maqolalarda o'quvchini boshqa xalqlar so'z san'ati bilan tanishtirish (bu ko'proq tatar matbuot nashrlarida e'lon etilgan adabiy materiallar edi) maqsadi ko'yilgan edi. Jurnal jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan yangi jarayonlarni keng yoritib bordi. Bular jumlasiga «Andijonda yangi bank», «Samarqandda elektr tramvay», «Buxoro temir yo'li» maqolalari kiradi, ochilgan kinoteatrlar, yangi kutubxona va qiroatxonalar haqidagi xabarlar ham bor. Behbudiy qalamiga mansub maqolalar orasida ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy maqolalar alohida o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlardan tahririya kelib turgan korrespondentsiyalar, xatlar, ma'lumot va xabarlar Yaponiyadan to Amerikagacha bo'lgan mamlakatlardan yuborilar edi. Bulardan tashqari, «Oyna» doimiy ravishda o'z o'quvchilarini Hindiston, Xitoy, Rossiya, Indoneziya musulmonlari hayotidan ham xabardor qilib turar edi. «Oyna»da chop etiladigan xabarlar o'rtasida Behbudiyning sevimli shoiri - Umar Xayyom ruboiylari berilib turardi.⁷⁵

⁷⁵ I.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T:O'zbekiston.1997,B-24

Jadidlarning mo'tabar ustozlari Ismoil Gasprinskiyga bag'ishlangan maqolalar jurnalning eng go'zal sahifalaridan edi. Behbudiyning o'zi uni «Xazrat» deb atar, unga nisbatan xurmat-e'tibori nihoyatda baland edi.⁷⁶

«Oyna» jurnali, umuman, Behbudiyning butun umri o'z xalkini uyg'otish va taraqqiyotga xizmat qilish maqsadlariga bag'ishlangan edi. Xar tomonlama u o'z xalqini ma'rifatga boshladi.⁷⁷

Behbudiy uchun ma'rifat va taraqqiyotning ko'l urmagan soxasi qolmagan xisob. Bu haqda «Oyna» mundarijasi, muallifning kitob hamda maqolalari guvohlik berib turibdi. Turkiston hayotida g'ayri xolat sifatida uning «Kitobat ul-atfol» nomli asari paydo bo'ldi, bu kitob o'zbek va tojik tillarida zarur axloqiy ta'lim-tarbiya asoslariga bag'ishlangan edi. Kitob mazmuni hayotning ehtiyojlari taqozosi bilan va asosan, jadidlarning mahalliy kadrlarini boshqaruv ishlariga faolroq tortishga bo'lgan harakatlari va ish yuritishning faollashuvi tufayli belgilangan edi. SHu bilan birga, bu kitob bolalarni shaxsiy va davlat ishlarini yuritishga o'rgatar edi. Bu yerda muallif «Xayr ul-umuri avsatuxo» - «Xar bir ishning o'rta miyonasi yaxshidir», - deb kishilarni voqea-xodisalarga va odamlarga bahqo berishda xolislikka, bosiqlikka, chuqur mulohaza yuritishlikka chaqiradi. Ya'ni Behbudiy o'z o'quvchilarini xat yozish, maktub bitish, imloga e'tibor berish, so'zlarni bexato qo'llash san'atini egallashga da'vat etadi va nafaqat lingvistik, balki ma'naviy bilimlar ham beradi. Bu yerda u yana til masalasiga qaytadi. Ish yuzasidan yoziladigan xatlar xorijiy ismlar, joylar nomlarisiz bo'lmasligi va bunda xatni to'g'ri, bexato va mazmunli qilib yozish uchun tillarni egallash lozimligini uqtiradi. «Kitobat ul-atfol» Behbudiyning madaniyat saboqlarida ham Garbiy Yevropa va ham SHarqiy madaniyat asoslari uyg'unlashib ketganligining in'ikosidir. Bu shu ikki madaniyat asoslarining uyg'unligi uning «Xifzi sixati oila» («Oila sog'ligini muxofaza qilish») maqolasida (biz o'quvchilarning diqqatini Behbudiyning tibbiyot ma'rifati mavzusiga ham tez-tez murojaat etib turganligiga qaratamiz) namoyon bo'ladi. Inson uchun, eng avvalo, zarur bo'ladigan bilim bu «ilmi badan

⁷⁶ B.Qosimov.Ismoilbek Gasprali. T: G'ofur G'ulom.1992, B-56

⁷⁷ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-23

va xifzi sixatdur» deb yozadi u. Avvalambor, Qur'oni karim va hadislarga hamda Gollandiya va Fransiya olimlarining statistik tadqiqotlari natijalariga suyanan holda Behbudiy erta oila qurish va erta nikoxga kirishning zarari va oila qurmasdan ham yurishning, ko'p xotinlikning zararlari hamda jinsiy tarbiya asoslari haqida fikr yuritadi. Bunday maqolalar o'sha vaqtlarda milliy jurnalistikamizda kamdan-kam uchrar edi.⁷⁸ Bu haqda faqat keng dunyoqarashga ega va chuqur mulohaza yuritadigan yuqori madaniyat egasi bo'lgan kishilargina yozishi mumkin edi. Umuman, Behbudiyning qarashlari, o'y-fikrlari keng va rang-barang bo'lib, ko'plari yosh avlodga qaratilgan edi. «Bizga isloh kerak» (Najot gazetasi, 1917 yil, 7 noyabr), «Xaq olinur, berilmas» («Xurriyat», 1917 yil, 13 iyul), «Yoshlarga murojaat» («Oyna; 1914 yil, 2-son), «Samarqandla milliy ishlar haqida; («Xurriyat», 1917 yil, 23 iyul), «Taxsil oyi» («Samarqand 1913 yil, 3 sentyabr) va boshqa maqolalarida unin va siyosatchi qobiliyati bilan birga o'qituvchi va tarbiya mahorati ham namoyon bo'ladi. Bu narsalar Behbudiyini: farzandlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularga chet tillar o'rgatish bilan birga yaxshi ta'lim-tarbiya ham bergan edi. Bilim olish uchun hech narsa to'siq bo'lmasligi kerak, deb yozgan edi Behbudiy. O'sha paytlarda odamlar to'y qilaman deb bor-budini sotar, o'zi, oilasi abgor bo'lib, iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolar edi. Behbudiy xalqni eskirib, kerak bo'lmay qolgan ba'zi bir urf-odatlardan voz kechishga chaqir va odamlarga bor-yo'g'ingizni, mol-mulkingizni sotadigan bo'lsangiz, bu pullarni o'g'illaringizni Yevropada o'qitishga sarf qilingiz, deb aytgan edi. Bundan tashqari, u dinga chuqur e'tiqod qo'ygan kishi bo'lib, S.Ayniy so'ziga ko'ra, bu e'tiqod inson ilmiga xizmat qilishi kerak, deb xisoblardi S.Ayniy yozadiki: «Xoja Baxouddin turbati atrofida solingan masjidlarni ko'rib, u ko'p qizdi. Namoz uchun bir yerda bir masjid va bir supa kifoya qilar edi. Boshqa masjidlarni o'rniga maktab solinib, bunda yig'ilgan faqir yo'qsinlarning bolalarini o'qitsalar edi, shuncha safil kimsalar o'rniga o'z kunini ko'raturgon bir to'da faol odamlar yetishar edi»- dedi.⁷⁹

Zamondoshlarining guvohlik berishicha, Behbudiyning, chop etilmagan asarlari juda ko'p, jumladan vafotidan yarim yil oldin yozib tugallagan kattagina - 200 bosma taboq

⁷⁸Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-45

⁷⁹Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.T:1997,B-46

xajmdagi meros xuquqiga oid asar, fors va turk mualliflari asarlari asosida tuzilgan astronomiya bo'yicha darslik, ayollar masalasiga bir maqolasi bor edi. Uning ba'zi asarlari chiqishiga Buxoro amiri va amaldorlar qarshi chiqqan. «Samarqand» gazetasida va keyinchalik «Oyna» jurnalida Buxoro amirligi qattiq tanqid ostiga olingan edi. Gazeta va jurnalda Toshkent, Qo'qon, Farg'ona boshka katta va kichik shaharlarda ham ro'y berayotgan voqea-xodisalar doimiy tarzda yoritib borilardi.⁸⁰ Bunda Buxoro amirligidagi voqealar alohida o'rin egallardi. «Tuzumi maktab dar Buxoro» («Samarqand», 1913 yil, 26 iyul, 26-soni), «Buxoroda to'ylar» («Oyna», 1913 yil, 5-son), «Buxoroda muxim qaror» («Oyna», 1913 yil, 10-son), «Buxoroning SHerobodidan maktub» («Oyna», 1914 yil, 17-son), «Buxoroni istiqboli qorong'u» («Oyna», 1914 yil, 40-son), «Buxorodan qaro xabarlar» («Oyna», 1914 yil, 39-son) maqolalari Buxoroga bag'ishlangan bo'lib, u yerda juda murakkab va qiyin iqtisodiy, ijtimoiy - maishiy muammolar, aholining, ta'lim-tarbiya va maorifning inqirozli xolati va albatta amir va uning hukumati tilga olinib, ayovsiz tanqid qilinar edi. Bundan tashqari, Ibroxim Yorqining ko'rsatishicha, Buxoroda muftiy unvonini olish uchun xazrat Behbudiy ma'lum bir ma'rifatchilik ishlarini ham amalga oshirgan edi. Axmad Donishning izdoshi bo'lgan M. Behbudiy uning Buxoroda maorifni isloh qilish g'oyasini rivojlantirgan va tashviqot etgan edi. Bu bilan u o'zining atrofiga fikrdoshlarini yig'ib, ular bilan 1910 yilda «Buxoroi nashri maorif» to'plamini chop etgan. Uning Buxoro amiri va xukmdorlarini tanqid etishi e'tiborsiz qolmagan va bu yerlarda tazyiq ostida 1910 yili chiqib ketishga majbur bo'lgan. Yuqorida aytganimizdek, Buxoroni tanqid etish «Oyna» jurnalida ham davom etdi. Bu xolatlarning barchasi uni ta'qib qilish va amir askarlari tomonidan xibsga olinishiga sabab bo'lgan eli. B.Qosimovning fikricha, amir Behbudiyni o'zining shahsiy ganimi deb bilar edi. Behbudiy kimlar tomonidan o'ldirilgan - amir tarafdorlarimi yoki bolsheviklar tomonidanmi?» -degan savolni bir xilda, bir yoqlama ko'ndalang qo'yish notog'ri bo'lar edi, Bu yerda Behbudiyning butun hayotini chuqur tadqiq etish, ayniqsa, hayotining so'nggi yillari, Turkiston muxtoriyatining e'lon etilishidan o'limiga qadar bo'lgan davrni har tomonlama o'rganish kerak. O'n yildan ortiq M.Behbudiy nomi rasmiy tarzda xalq qaxramoni sifatida tilga olindi. Qarshi shahri,

⁸⁰Unitilmas siymolar. T:Akademiya. 1998, B-89;90

Toshkent, Samarqand ko'chalari Behbudiy nomi bilan atab kelindi. Do'stlari uning to'la asarlarini chop etishmoqchi bo'lishdi. Vafotidan so'nggi dastlabki yillari u haqda atiga 5 maqola chiqdi. Ammo, jadidchilik totalitar tuzum domiga tushib, abgor bo'lgandan so'ng Behbudiyning nomi kamroq tilga olina boshladi va asta-sekin unutila bordi, unga burjua millatchilik harakati yo'lboshchisi tamg'asini yopishtirdilar.⁸¹

Behbudiy xazratlari o'z ishining fidoyisi edi. U jon bera turib, o'lim talvasasida o'z xalqiga ma'naviy vasiyat qoldirishga muvaffaq bo'ldi. Uz do'stlariga maorif, madaniyat, fanni rivojlantirish va taraqqiyotga xizmat etishni vasiyat qildi⁸².

U Turkiston tarixiga kuchli va progressiv harakatni jadidchilik deb nomlanuvchi yangi shabadani olib kirgan siymo timsolida gavdalanadi. Bu harakatning sobit qadam izdoshlari Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligida tarixni chuqur o'rganish zamonni va voqealikni har tomonlama xis qilish orqali ona-Vatan kelajagi istikbolini, uning taraqqiyoti yo'lini rejalashtirib bera oldilar. Turkistonda xukm surgan qoloqlik va esklikni o'z vaqtida ko'ra bilgan manba yuksak aql - zakovat va vatanparvarlik edi. Bugungi kunda Behbudiy va safdoshlarining hayoti va faoliyati, ularning boy meros: va taqdirlari Germaniya, Turkiya, AKSH, Yaponiya, Markazi Osiyo davlatlari va albatga, Vatanimiz olimlarining ilmi nazari markaziga tushgandir.⁸³

Behbudiy o'z vasiyatida: «Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymanglar. Sizlarga vasiyat qilaman! Xammaga ozodlik yo'lini ko'rsatinglar!»- degan edi. Bugungi tadqiqotchilar avlod xalqimiz ma'rifati yo'lida Behbudiy belgilagan cho'qqilar sari intilib, ona-Vatan saodataga tinmay xizmat qilishi istiqloq tufayli ana shu bois ma'rifatparvar bobomiz. orzularining ro'yobga chiqishi uchun yul ochilganidan dalolat beradi⁸⁴.

⁸¹ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q.T:Muloqot.1994,B-78

⁸² D.Asqarov. Behbudiyning so'nggi manzili.fan va turmush. B-13;14

⁸³ I.Karimov.Ozod va ob od vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.T:O'zbekiston.2000,B-90

⁸⁴ A.Alimova. Mahmudxo'ja behbudiy va uning tarixiy tafkkuri. T: Akademiya.B-79

2.2 Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yaratilgan darsliklar va adibning siyosiy faoliyati

Mahmudxo'ja Behbudiy o'lkadagi «usuli jadid» maktabining eng birinchi nazariyotchi va amaliyotchilaridan, umuman, jadidchilik harakatining esa tan olingan karvonboshisidir.

1908 yilda ochilgan Rajabamin qishlog'ida ochilgan yangi usuldagi Abdulqodir Shakuriy maktabini Samarqandga, o'z hovlisiga ko'chirib keldi, unga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatdi. Abdulqodir SHakuriy 1903 yil Orenburg va Qozonda, 1911 yili Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib, jadid maktablarda o'qitish ishlari bilan tanishadi. U Samarqandda o'zi ochgan jadid maktabini keyinchalik tergovda tan olishicha, 1925 yilgacha saqlab turgan.⁸⁵

U o'zbek va tojik tillarida «Kitobul-aftol»—«Bolalar uchun kitob», «Muxtasari tarixi islom»—«Islomning qisqacha tarixi», «Amaliyoti islom», «Madhali jo'g'rofiyai umroniy»— «Aholi geografiyasiga kirish», «Muxtasari jo'g'rofiyai Rossiya» —' «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi asarlarni yaratgan.⁸⁶

«Behbudiy nashriyoti»ni tashkil etib, unda o'zbek tilida darsliklar, «Turkiston, Buxoro va Xiva haritasn»ni bosqib chiqardi. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatidagina emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega edi.

Samarqandda mahalliy aholi uchun kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qildi. Behbudiy o'quv rejasini amalga oshirish uchun tahsilni ikki bosqichga -ajratdi: . Har bir o'quv bosqichi 4 yildan iborat edi.

Birinchi yil (1-sinf). 1-bosqich maktabining mazmuni:

Forscha, arabcha alifbeni yozish va o'qishni o'rgatish. Hisob darsidan qo'shish va ayirishni. Bolalarni zehni va nutqini o'stirish uchun og'zaki hisob, suhbat usulidan foydalangan.

⁸⁵ Guliston, 2001, №1,B-64

⁸⁶ O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, Pedagogika, T: O'qituvchi, 1997,B-162

Qur'on suralaridan yod olish hamda namoz o'qish o'rgatilar edi.

Ikkinchi yil (2-sinf). «Haftiyak darsi», «Imon va e'tiqod darsi» (Bu darsning maqsadi ota-ona va Vataniga mehrli va sodiq qilinb tarbiyalashdir).

Uchinchi yil (3-sinf). Kalomu SHarif kitob — islom ibodati darsi, tajvid qoidalari, adabiyoti forsiy va turkiy. Sa'dinning «Nasihatnoma» asari asosnda forsiy va turkiy tili o'tilgani hisobidan taqsimlashni o'rganar edilar.

To'rtinchi yili (4-sinf). Kalomu SHarif kitobining davomi - islom ibodati darsining davomi, forsiy ia turkiy adabiyot (nazm va nasr o'rgatilar edi). Forsiy va turkiy til, axloq hisob (to'rt amalni bajargan), tarix, islom tarixi, jo'g'rofiya kabi darslar o'tilar edi.

Maktabning bu bosqichini bitirgan o'quvchilar forsiy va turkiy tilda savodlari chiqib, arab tilidan han bilimga ega bo'lib, Qur'oni Karimni tajvid asosida o'qir edilar. Behbudiyning fikricha, to'rt sinfli «usuli jadid»da o'qigan tolib, o'n sana eski maktabda o'qigan tolibdan puxta bilimga egadur⁸⁷.

I bosqich maktabning 4- sinfini bitirgan bolalar II bosqich maktabga qabul qilinar edi. Maktabning bu bosqichi o'rta hisoblanar edi.

II bosqich maktabi:

Birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya (falakiyot), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, nsлом tarixi, Sa'diyning “Guliston”, fors va turkiy tillar o'qitilar edi.

Ikkinchi yili arab tili, shifohiya (meditsina), tarix, ,islom tarixi, axloq darsi, fors, turkiy tillari, hioob kabi darslar o'tilar edi.

Uchinchi yil — arab tili, hisob, islom muhokamasiga oid dars, umumiy tarix, rus tili (xat va turli hujjatlarni yozishnn mashq qilganlar). Turkiy tilda ish yuritish qog'ozlari ham o'rgatilgan.

To'rtinchi yili — arab tili, rus tkilda ish yuritish, ta'lim (pedagogika), adabiyot, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq olar edi.

Sakkiz yillik maktabni bitirgan savodli, xatto adabiy maqolalar yozish qobiliyatiga ega bo'lgan islomshunos, yuksak axloqiy shogirdlar edilar. Bu

⁸⁷ .Tojiboyev.Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz. Jamiyat va boshqaruv.1997,B-89

shogirdlar xohlasa tijorat, mirzolik, muharrirlik va usuli jadid maktabda muallimlik qilishga qodir edilar.⁸⁸

Behbudiy o'zbek va tojyak tillarida o'z maktabi toliblari uchun darsliklar yaratdi.

Dunyoga tanilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Ilmning zarurligini u o'zining «Bolalar uchun kitob» darsligida asoslab berdi. Bu darslik fors va o'zbek tillarida yozilgan. Darslikning asosiy mazmuni ish yuritish tartib-qoidalariga qaratilgan. Behbudiyning fikricha: «...Ovrupo ila savdo qilaturg'on kishi avvalo un sani zamona ilmi uqimog'i lozim». Bu yo'lda boylarga ham murojaatim shulkim, boshqa millatlarning boylari, faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, ularning o'qimog'i uchun pul tayin qilurlar». Behbudiy kelajak avlod— Ovrupa, Turkiya va boshqa xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish, ular hayotini o'rganish; tijorat ishlarida ish yurtnsh qonui-qoidalariii o'rganishi, zarur deb hisoblaydi.

Darslikda (5 bet) xat szmoq shartlari beriladi.

- Xatni kamso'z, sermazmun yozmoq;
- Maktabda haqorat, ta'na, hazil, gunohga taalluq so'zlar aslo yozilmasligi;
- Xat borib tegadurg'on odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishiga muvofiq bo'lmog' lozim;
- Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lgaida o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib yozishi kerak;
- G'azab, xiralik va nihoyat xursand va behushlik vaqtlarda xat yozmaslik, o'znni oldingn holatiga kelganda yozmog'i kerak.⁸⁹

Bu darslikda yana xususiy xatlar, rasmiy xatlar hatsida ham ma'lumot beriladi, Ayniqsa, yozgan xatlarda va hujjatlarda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanmsh zarurligini ko'rsatadi.

Behbudiy o'z zamonasidagi madrasalar ahvolini o'zining 1907 yilda yozgan «Faryodi Turkiston» maqolasida shunday ta'riflagan edi:

⁸⁸ Sh.Rizayev. Jadid dramasi. T:Sharq. 1997,B-34

⁸⁹ O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, Pedagogika, T:, O'qituvchi, 1997,B-164

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sado ila bir johil qozi saylanur».⁹⁰

O'zbek pedagogikasi tarixida sezilarli iz qoldirgan zabardast pedagog olimlardan biri Ishoqxon Ibrat 1862 yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Junaydullaxo'ja bilimli, mirishkor bog'bon bo'lib, adabiyotga, xususan, she'riyatga ixlosmandligi sababli «Xodim» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Onasi — Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan biri bo'lgan, qishloq qizlarni savodsiz chiqargan va o'zi ham she'rlar mashq qilgan. Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab va boshqa shoirlarning asarlarini o'qigan. Ana shu oiladagi adabiy muhit Ishoqxonda adabiyotga kiziqish uyg'otgan.

1870 yilda otasi vafot etib, oilaning tashvishi yosh Ishoqxon bilan onasining zimmasiga tushgan. U besh yil mahalla maktabiga qatnab savodini chiqara olmagan. Bu haqda Ishoqxon «Mezonul zamon» nomli asarida quyidagilarni yozgan: «Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o'qub, oxirgi savodim chiqmay, keyin qizlar maktabi, o'z uyimizda volidai marhumamda o'qib savod chiqardim. Ikki sana husnixat mashq etdim»⁹¹.

Ishoqxon yoshligidan husnixatdan xabardor bo'lib, bo'sh vaqtlarni ana shu san'atni o'rganishga bag'ishlagan, Keyinchalik, Ishoqxon Qo'qondagi madrasada o'qigan, Muqimiy bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Madrasada arab, fors tillari bilan birga rus tilini ham o'rgangan. Ishoqxon 1886 yilda madrasani bitirib, o'z qishlog'ida maktab ochgan va unda, nisbatan ilg'or hisoblanmish usuli savtiyadan foydalangan. Tabiiyki, maktab qora guruhlar tomonidan yopilgan va Ishoqxon asar yozish bilan shug'ullangan. U «Lug'ati sitta al sina», «Jamo'ul xutut», «Devoni Ibrat», «Tarixiy madaniyat», «Toshkent musulmon maktablari haqida» kabi asarlarini yaratgan. Ishoqxon iste'dodli bilimdon shaxs edi. U juda ko'p tillarni mukammal bilar edi. Bu borada Ibrohim Davron quyidagilarni yozgan: «Qozi To'ra janoblari arabcha, turkcha, forsha, hindcha lisonni bilib, yana ruscha, frantsuzcha, armancha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar».⁹²

⁹⁰ O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, Pedagogika, T: O'qituvchi, 1997, B-162b

⁹¹ R.Tojiboyev. Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz. Jamiyat va boshqaruv. 1997, B-62

⁹² Sh. Turdiyev. Ma'rifatparvar va murabbiy. Sovet O'zbekistoni. 1998, B-67

1886 pa 1907 yilda yangi usuldagi maktab tashkil etdi. 1914 yili To'raqo'rg'onda yangn maktab ochadi. 1918 yili yana maktab ochib barchani ma'rifatli bo'lishga xizmat qildi. Sermahsul shoir, yozuvchi, musiqashunos pedagog Ishoqxon Ibrat 1937 yili 75 yoshida vafot etdi.

Ishoqxon Ibrat ta'lim-tarbiya haqida XIX asrnng oxirlari va XX asr boshlariga kelib reaksiya guruhlar qarshiligiga qaramay yangi usul, rus-tuzem maktablari va rus tilini o'rganishga qiziquvchilar soni birmuncha ortdi. Bu maktablarda dunyoviy fanlar va ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilar edi. Ishoqxon Ibrat rus tili bilan birga o'nga yaqin sharq, g'arb tillarini ancha mukammal bilgan. U olti tildagi arabcha, forsa, hindcha sarta (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan «Lug'ati sitta al-sina» nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi.⁹³

«1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istambul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi, — yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko'rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofida Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. SHakuriy) qishloklarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risoi asbobi savod» (1904), «Risoi jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risoi jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tari-xi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.⁹⁴

Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. O'zSE dagi «Behbudiy» maqolasi muallifi marhum S. Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Kitobatul atfol» («Bolalar maktublari»), «Muxtasar tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muxtasar jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi»). SHulardan bittasiga — «Muntaxabi

⁹³ R.Tojiboyev.Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz. Jamiyat va boshqaruv.T:1997,B-61

⁹⁴ Sh. Turdiyev. Ma'rifatparvar va murabbiy. Sovet O'zbekistoni.1998, B-68

jug'rofiyai umumiy»ga to'xtaymiz. Asarning to'la nomi «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya». 1905 yil 24 avgustda Sankt-Peterburg tsenzurasidan ruxsat olinib, 1906 yil Samarqandda G. I. Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu «qadim fan»ga taalluqli «turkiy, arabiy, forsiy, rusiy lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttuz qadar qadim va jadid kutub va rasoili jug'rofiya, hay'ati riyoziy, tarixiy, tabiiy»lardan va yana juda ko'p turli-tuman ma'lumot-manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi.⁹⁵

Kitobning dastlabki sahifalarida jug'rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, asarlari nomi keltiriladi. Muallif SHamsiddinbek Somiyning (1850 — 1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a'lom» va Ismoilbek Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblarida-gi xujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan.

Boblarning biri «Jug'rofiyani o'qumoq musulmonlarga lozimdur» deb atalgan. Unda Yer haqidagi xurofiy tushun-chalar tanqid qilingan. Chunonchi: «Ammo xirzirgi jug'ro-fiya ilmi, tajriba va ro'yati boshlaridan bilinadurki, Yer kuraviy — yumaloq, ostig'a ho'kuz, balig' yo'q, atro-fig'a devori yo'q va Yer aylanadur, havog'a muallaq turadur. Bizni nazarimizg'a sokin va ammo haqiqatda aylanadur».⁹⁶

«Eski va yangi donishmandlar» faslida qadim Batlimus (Ptolomey)dan qolgan geotsentrizm va unga qarama-qarshi geliotsentrizm haqida gap ketadi. Ilmiy hay'atdagi «Sab'ayi sayyor», «To'qquz osmon» iboralari izohlanadi.

«Axdi hay'ati jadida, ya'ni yangi hukamolar aytadurki, Oftob dunyoni o'rtasig'a xalq bo'lubdurki, Atoruddan boshlab qadima besh sayyora va yangi topilgan ikki sayyora va ko'z ila ko'rilmay, yangidan durbin ila topilgan uch yuzg'a yaqin sayyoralar bularni ichig'a biz ustida turg'on Yerimiz Oftobni atrofig'a har biri o'zig'a tegishli doira — ayla-nasig'a aylanib yuradurlar. Yerimiz Oftobg'a nisbatan uch-lanchi sayyora — yurguvchi yulduzdur! Yurguvchi

⁹⁵ Mahmudxo'ja Behbudiy, T:1997,B-10

⁹⁶ B.Qosimov, Milliy uyg'onish, T: 2000,B-14

yulduzlarni hammasi benur va yorug'likni oftobdan oladur» (22-bet) o'qiydigan kitobda.⁹⁷

Muallif shu tariqa, juda sodda qilib osmon jismlarining joylashishi va harakatini tushuntirib beradi. Bularning ayrimlari Qur'on va Xadis xabariga rost kelmasligini ham aytadi. SHunga qaramasdan, «Yangi hukamolar osmondagi yulduzlarni ahvolidin eskilardin ko'ra yaxshiroq ogoh bo'lubturlar», — deb yozadi.

Tabiiyki, maktablar uchun darsliklar ham yozila boshladi. Dastlabiga Saidrasul Aziziyning rus-tuzem maktablari uchun yozilib, 1901 yilda bosilib chiqqan «Ustozi avval» idan foydalandilar. 1903 yillardanoq jadid maktablari uchun maxsus darsliklar tuzish ko'zga tashlandi. Lekin bu ishlar g'oyat qiyin kechdi. Yo'l berilmadi. Masalan, Behbudiy «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy»sini nashr qilish uchun uzoq ovoragarchiliklardan so'ng 1905 yilning 24 avgustida Sankt-Peterburg tsenzurasidan ruxsat olishga muvaffaq bo'lgan va kitob 1906 yildagina Samarqandda G. I. Demurov bosmaxonasida nashr etilgan edi.⁹⁸ Shularga qaramay, 1907 yildan «usuli jadid» darsliklarining tez-tez nashrini kuzatamiz. Jumladan, 1907-10 yillarda Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy» darsliklari, Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» majmuasi, «Birinchi muallim», «Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom», Buxoroda Ayniyning «Tahzibus sibyon» kitoblari dunyo ko'rdi.⁹⁹ 1911 — 13 yillarda ular yoniga Rustambek Yusufbekovning «Ta'limi avval», «Ta'limi soniy»si, Munavvarqorining «Xavoyiji diniya», «Er yuzi (jo'g'rofiya)», qo'qonlik Mirzo Xayrulloxonning «Tuhfat ul-atfol», buxorolik Abdurauf Fitratning «Muxtasar tarixi islom», namanganlik Abdurazzoq bin Mirzaqorining «Miftoh ul-avval», samarqandlik Abdulmo'minxo'ja Eshon o'g'lining «Nasoyihul-atfol», Avloniyning «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq», Qori Muhammad Rahimboyning «Ne'matul-islom», Siddiqiy-Ajziyning «Tajvid al-qur'on» kabi ko'plab kitoblari qo'shildi. Ayrim darsliklarimiz (Muxtor Bakir,

⁹⁷ Mahmudxo'ja Behbudiy, T:1997,B-14

⁹⁸ B.Qosimov, Milliy uyg'onish, T; 2000,B-45

⁹⁹ R.SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T:O'qituvchi, 2002,B-35

«Savod», 1913) Qozonda chop etildi. Birinchi jahon urushidan so'ng unga ulanib ketgan 17—20 yillardagi siyosiy larzalar davrida ham usuli jadid maktablari to'xtab qolmadi, darsliklar chop etilaverdi. Eskilar qayta bosildi, yangi nashrlar paydo bo'ldi. Fitratning «Muxtasar tarixi islom» (1915), «O'qu» (1917), Ashurali Zohiriyning «Imlo» (1916), Shokirjon Rahimiyning «Sovg'a» (1919), «Kattalarga o'qish» (1920), «O'zbek alifbosi» (1922) kabilari shundaylardan edi. Nihoyat Hamzaning «Engil adabiyot» (1914), «Qiroat kitobi» (1915), Avloniyning «Uchinchi muallim» kabi maktablarda o'qitilgan,¹⁰⁰ lekin turli sabablar bilan bosilmay qolgan darsliklarini ham bular qatoriga qo'shish mumkin Xullas, jadidlar O'zlarini ma'rifatchilik ishlarini yoyish uchun turli darsliklar yaratdilar. Ularning asarlari o'z ahamiyati bilan juda katta salmoqqa ega . Ularning ichida Behbudiy asarlari alohida ahamiyat kasb etadi¹⁰¹

¹⁰⁰ J. Yo'ldoshev, S. Hasanov, Jadid tarbiyashunoligi asoslari, T: O'qituvchi, 1994, B-72

¹⁰¹ R. SHaripov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T: O'qituvchi, 2002, B-80

Xulosa

SHunday qilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti O‘zbekiston tarixining eng qiyin damlaridan bo‘lgan mustamlakachilik kuchaygan davrga to‘g‘ri kelgan. Bir tomondan, rus bosqini, ikkinchi tomondan O‘rta Osiyo maorif tizimida yangilanish boshlangan, uchinchi, ushbu yangilikka qadimchilarning qarshilik qilgan davrga to‘g‘ri kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy esa ma‘rifatchilikda paydo bo‘lgan yangi oqim – jadidchilikni tanladi. Xalqni ma‘rifatli qilish orqali mustaqillikka erishish yo‘lini ko‘rdi. Bu yo‘lda dadil qadam tashlab, ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi va haqli ravishda “Turkiston jadidlarining ma‘naviy otasi” degan faxriy nomga sazovor bo‘ldi.

Umuman jadidchilik o‘zining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi jihatidan uch katta davrga bo‘linadi:

- jadidchilik tamoyillarining vujudga kelishi davri (1870-1900 yillar);
- jadidchilikning harakat darajasiga ko‘tarilish davri (1900-1917 yillar);
- jadidchilikning so‘nggi davri (1917-1935 yillar).

Dastlabki davrlarda jadidchilik harakati o‘zining boshlang‘ich davrlarida faqat xalqni ma‘rifatga yetaklash g‘oyasini ilgari suradi. Shu maqsadda g‘oyalar yaratildi. Bu g‘oyaning jarchisi bo‘lib, Qrimlik Ismoil G‘aspirali bo‘lib chiqdi. U o‘zining dastlabki jadid usulidagi maktabi bilan boshqa musulmon olami ulamolariga namuna bo‘ldi. Turkistonlik ma‘rifatparvarlar shu tariqa jadidchilik oqimiga ixtiyoriy suratda qo‘shildilar. Zero bunday voqelikning vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Chunki, xalq har doim ham mudrab yotavermaydi. Qachondir millat ichidan shu millatni o‘ylovchi, kelajagi haqida qayg‘uruvchi fidoyilar yetishib chiqadi. Jadidlar ana shunday namoyondalar bo‘lib chiqdilar.

Dastlab o‘z yurtida bunday maktabni ochgan Ismoil G‘aspirali bunday tashabbusni boshqa musulmon olamiga har targ‘ib qilishga bel bog‘ladi va bunday targ‘ibot uchun Turkiston o‘lkasidan boshqa qulayroq va ma‘qulroq yurt yo‘q edi, albatta. SHuning uchun 1892 yilda Buxoro amiri Abdulahatxon huzuriga keladi. Keyinroq Turkiston general-gubernator huzuriga o‘zining musulmon maktablarini isloh qilish g‘oyasini jo‘natadi va ulardan jo‘yadirq javob kutadi. Lekin

kutilganidek uning takliflari oqibatsiz qoldirilgan. SHundan keyin uning o'lka aholisi ichidan o'ziga xayrixohlar izlagan va topgan albatta. Ana shunday shaxslar bo'lib, dastlab, Mahmudxo'ja Behbudiy va Toshkent jadidlarning otasi Munavvarqori bo'lib chiqdilar. Turkistonlik ilg'or ulamolar albatta ularning ortidan ergashdilar va o'lkada yangi usuldagi jadid maktablarini ochishga jondan xizmat qildilar. Ularning bu harakatlari besamar ketmagan. O'lkada birin-ketin jadid maktablari ochila boshlandi. Yevropacha tipdagi dastlabki o'rta maxsus maktablar ha paydo bo'la boshladi. Yoshlar chet ellarga o'qish uchun yuborildi. Ular asosan Germaniya va Turkiyaga o'qish uchun yuborildi. Ularning yaxshiroq bilim olishlari uchun xayriya jamg'armalari tashkil etildi. Saxovatli boylarimiz bunday yoshlar uchun o'z mablag'larini ayamaganlar.

Bilim olish uchun chet ellarga jo'natilgan yoshlar u yerdan milliy mustaqillik haqidagi tushunchalar bilan boyib qaytdilar. SHuning aksi o'laroq dastlab xalqni faqat savodli qilish maqsadida vujudga kelgan jadidchilik harakati, keyinchalik o'lkaga muxtoriyat talab qiladigan kuchgacha o'sib chiqdi. Ular mehnati samarasi sifatida Turkiston Muxtoriyatini ko'rishimiz umkin.

Aholini bu qadar ma'lumotli, siyosiy jihatdan yetuk darajaga olib chiqish jarayonida jadidlar o'zlarining imkonlariqadar harakat qildilar, turdi gazetalar nashr etdilar. Ular chor amaldorlari tomonidan takror-takror berkitilishiga qaramasdan mahalliy gazetalar doimiy suratda bosilib turdi. Yoshlarni savodli qilish umummilliy harakatga aylandi. Hamma yerda jadid maktablarining afzalligi tarqaldi. Albatta bunday oqimga qarshi bo'lgan "qadimchilar" ularning mehnatlari samarasini yo'qqa chiqarishga harakat qildilar. Oxir-oqibat ustunlik jadidlar tarafida bo'ldi va ular o'lka maktablarining yetakchi kuchlariga aylandilar.

Jadidlarning bunday harakatlari albatta chor ma'murlari tomonidan yaxshi qarshi olinmagan. CHor ma'murlari mahalliy aholini mukammal bilimli bo'lishini istamas edilar. SHuning uchun imkoni boricha chor ma'murlari bunday maktablarni berkitishga harakat qilganlar. Hatto o'lkani ruslashtirishga bo'lgan intilishlarini mahalliy aholi rus tilini o'rganishda deb bilanida, mahalliy aholi

vakillari rus tilini jiddiy suratda o'rganishga kirishgan paytlarida ham ularga qarshi harakat qilib, bunday tashabbusni bo'g'ishga harakat qilganlar.

Albatta jadidlarning bunday harakatlari samarasiz ketmagan. Ularning o'lkani ma'rifatli qilish va siyosiy jihatdan mukammallashtirishga bo'lgan urinishlari aholini siyosiy jihatdan jonlanishiga va chor ma'murlariga qarshi ko'pincha norozilik harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Garchi jadidlar harakati va ularning mevalari bo'lgan Turkiston Muxtoriyati vaqtida bo'g'ib tashlangan bo'lsada, ularning orzu-umidlari XX asrning oxirgi o'n yilligiga kelib ro'yobga chiqdi va jahon siyosiy haritasida Mustaqil O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T.: «O'zbekiston» 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. T.: «O'zbekiston» 2017.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q.T.: Muloqot. 1999
6. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston. 2000
7. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O'zbekiston. 2000
8. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston.1997
9. Karimov I. Yangicha yashash va ishlash davr talabi. T:O'zbekiston.1997.
10. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T:O'zbekiston.2008,
11. Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. T:Ma'naviyat.1997.
12. Mahmudhoja Behbudi. Nauka I prosveshenie. T:1992.
13. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.T:Sharq. 5-tom
14. Yo'ldoshev, S. Hasanov.H, Jadid tarbiyashunoligi asoslari, T; O'qituvchi, 1994.

15. Sharipov.R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T:O'qituvchi, 2002
16. Qosimov.B. Milliy uyg'onish, T; 2000.
17. Tojiboyev.R.Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz. Jamiyat va boshqaruv.T:1997.
18. Turdiyev.Sh. Ma'rifatparvar va murabbiy. Sovet O'zbekistoni.1998,
19. Hasanboeva.O, Hasanboev.J, Hamidov.H, Pedagogika, T: O'qituvchi, 1997
20. Sh.Rizayev. Jadid dramasi. T:Sharq. 1997
21. Unitilmas siymolar. T:Akademiya. 1998
22. Alimova.A. Mahmudxo'ja behbudiylar va uning tarixiy tafakkuri. T: Akademiya.
23. Asqarov.D. Behbudiylarning so'nggi manzili.Fan va turmush.
24. Qosimov.B.Ismoilbek Gasprali. T: G'ofur G'ulom.1992
25. Avazov.N.Behbudiylar- ma'rifatparvar.T:Sharq.1993
26. Shamsitdinov.A.Jadidchilik-haqiqat va uydirma.T:Muloqot.1991,
27. Qozoqov.T.Ma'rifat jonkuyari.Fidokor 2001
28. Mustaqillik..Izohli ilmiy-omambop lug'at.T: Sharq.1998
29. Qosimov.B. Behbudiylarning qabri qayerda? O'zbekiston adabiyoti va san'ati. T:1994.3-son
30. Jadidchilik va milliy iftihor tantanasi. T: 2002
31. Rasulov.R, Shoir So'fizoda haqida, G'. G'ulom nashriyoti. T: 1968,
32. Qozoqov T. Farg'onada jadid maktablari, Fan va turmush, 1998
33. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, T: O'qituvchi, 2002
34. Jadidchilikning ko'zga ko'ringan vakillari.T: Ma'naviyat.2002
35. Shamsutdinov.R, Rasulov.B. Istiqlol uchun kurash fidoyilari. Andijon, 1993
36. Sharq yulduzi, 1992, 5-son,
37. O'zbek tili va adabiyoti. 1995, № 3
38. Guliston, 2001, №1
39. Jahon adabiyoti, 1998, mart

